

O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI OLIY VA O'RTA MAXSUS
TA'LIM VAZIRLIGI



URGANCH DAVLAT UNIVERSITETI
FILOLOGIYA VA SAN'AT FAKULTETI

*ABDUKARIMOV SUXROB SHERIPOVICH*ning

5140900 - Kasbiy ta'lim (Amaliy san'at) ta'lim yo'nalishi bo'yicha
bakalavr darajasini olish uchun

BITIRUV MALAKAVIY ISHI

**Mavzu: "KXKLARI O'QUVCHILARIGA YOG'OCHDAN
YASALGAN BUYUMLARGA NAQSH SOLISH
TEXNOLOGIYASINI O'RGATISH"**

Ilmiy rahbar:

RO'ZMETOV QUVONDIQ SHONAZAROVICH

Urganch 2013 yil

Mundarija

Kirish	3-11
I BOB. KHKlarida naqqoshlikdan to`garaklar tashkil qilishning metodik asoslari	
I.1. Kasb-hunar kollejlarda naqqoshlik to`garagining xususiyatlari va vazifalari. O`quv jarayonini tashkil qilish	12-14
I.2. Naqqoshlik san`atini bosqichma-bosqich o`rgatishning metodikasi	15-20
I.3. Naqqoshlik san`atini to`garaklarda o`rgatish bo`yicha o`quv dasturi.....	21-23
I.4. Naqqoshlik fanidan talabalarning mustaqil ishlarini tashkil etish.....	24-28
I.5. Naqqoshlik mashg`ulotlarida texnika vositalaridan foydalanish.....	29-35
I.6. Naqqoshlik mashg`ulotlari uchun mo`ljallangan ko`rgazmali qurollar mavzulari.....	36-44
II BOB. Yog`ochdan yasalgan buyumlarga naqsh solish texnologiyasi o`rganishning nazariy asoslari.	
II.1. Yog`ochdan yasalgan buyumlarga qo`llanilgan naqsh turlari, ularning tuzilishi va nomlanishi.....	45-48
II.2. Yog`ochdan yasalgan buyumlarga qo`llanilgan naqsh kompozitsiyalarini tuzish bosqichlari va qonuniyatlari.....	49-51
II.3. Yog`ochdan yasalgan buyumlarga naqsh kompozitsiyalariga rang tanlash, ranglash va pardozlash texnologiyasi.....	51-53
Xulosa	54-55
Foydalanilgan adabiyotlar ro`yhati.....	56-57
Ilovalar.....	58-63

Kirish

Tadqiqot mavzusining dolzarbligi va tanlanishi. O'zbekiston Respublikasi demokratik-huquqiy davlat bo'lib, ochiq fuqarolar jamiyatini qurish, maxsus ta'lim olish huquqini va tanlangan kasbi, hamda mutaxassisligi bo'yicha mehnat qilishini ta'minlash yo'lidan bormoqda. Shuning uchun O'zbekiston Prezidenti I.A. Karimov: muhim vazifalardan biri «Davlat va jamoatchilik muassasalarini kasb-hunarga yo'naltirish bo'yicha faoliyatini takomillashtirish», «Kasb har qaysi inson o'ziga mos keladigan kasbni o'zlashtirishi uchun imkoniyatlarni e'tiborga olishi zarur» deb alohida ta'kidlagan.¹

Davlatimizning hozirgi ijtimoiy-iqtisodiy hayotida kasb tanlash va o'quvchilarni kasb-hunarga yo'naltirishni takomillashtirish muammosi muhim ahamiyatga egadir.

Birinchidan, kasb-hunarga yo'naltirish kasbiy maslahat va kasb tanlash tadbirlarining amaldagi tizimi sifatida yoshlarni va barcha mehnatga layoqatli aholini ijtimoiy va iqtisodiy himoyalashni ta'minlaydi. Inson o'zining qiziqishi, layoqati va iqtidoriga mos holda kasb tanlagan bo'lsa, uni muvaffaqiyat bilan o'zlashtiradi va tezda ijobiy natijalarga erishadi.

Ikkinchidan, fuqarolarning ilmiy asoslangan va ongli kasb tanlashi o'z mehnatidan yuqori natijalar olishi uchun muayyan kasb, mutaxassislikka bo'lgan talablarni hisobga olgan holda iqtisodiyot sohalari bo'yicha mehnat resrslarini ratsional taqsimlashga imkoniyat yaratadi. Kasb-hunarga yo'naltirishning yakuniy natijalari davlatimiz iqtisodiyotining rivojlanishiga katta ta'sir ko'rsatadi, ish beruvchilarning malakali raqobatbardosh qadrlarga bo'lgan talablarini qondiradi, shaxsning keyingi mehnat faoliyati uchun ta'lim olishi va kasb egallashiga bo'lgan ehtiyoj- xohishini rag'batlantiradi.

Shunday qilib, mavjud ta'lim tizimida umumiy o'rta ta'lim va o'rta maxsus, kasb-hunar ta'limi dasturlari orasida izchillikning yo'lga qo'yilmaganligi natijasida tayanch va o'rta hunarga yo'naltirish va mehnat faoliyati malakasi shakllanmagan. Yigitlar va qizlar o'zlarining layoqatlari, xohishlari va ijodiy

¹. O'zbekiston Respublikasi Prezidenti I.A.Karimovning 1997 yil 31 mart Farmonidan

mehnatga boʻlgan qobiliyatlariga mos keluvchi hayot yoʻlini tanlab olishda jiddiy qiyinchiliklar sezadilar.

Kasb tanlash va yoshlarni kasbiy oʻz oʻrnini topish muammolarini oʻrganish shuni koʻrsatadiki, oʻylamasdan tanlagan kasb, shu kasbni egallashdagi muvaffaqiyatsizlik, shaxs va jamoatchilikka iqtisodiy va maʼnaviy zarar keltiradi, natijada taʼlim muassasalari (kasb-hunar kollejlari, akademik litseylar, oliy oʻquv yurtlari) bitiruvchilarining oʻz kasbiy oʻrnini topa olmasliklariga sabab boʻladi.

Ana shunday muammolarni hal qilish maqsadida ushbu bitiruv malakaviy ishi yaratildi. Chunki hozirgi kunda yoshlarning xalq amaliy sanʼati turlari hunarlarini egallashlarida jiddiy muammolarga ham duch kelinmoqda. Buning asosiy sabablari sifatida yoshlarga ana shu sanʼat sirlarini taʼlim muassasalarining kamligi, dars mashgʻulotlarini tashkil qilishdagi qiyinchiliklar, aniq dasturlarning ishlab chiqilmaganligi va oʻquv qoʻllanmalarining etishmasligi kabilarni alohida taʼkidlab oʻtishimiz lozim. Bor darsliklar ham qisqa xajmdagi materiallar bilan cheklanib qolmoqda. Bu darsliklarda amaliy va nazariy koʻnikmalarni rivojlantirish boʻyicha materiallar deyarli yoʻq, shu munosabat bilan darslik, mustaqil ish topshiriqlari va metodik qoʻllanmalarni tayyorlash, ulardan foydalanish imkoniyatlarini zaruriyati yuzaga keldi. Chunki hozirgi kundagi bor darslik va oʻquv qoʻllanmalarda oʻzgarib borayotgan ijtimoiy pedagogik sharoit, taʼlim maqsadlari toʻla eʼtiborga olinmagan, oʻquvchilarda ijodkorlik koʻnikmalarini rivojlantirishga ham eʼtibor qilinmagan. Bizningcha yuzaga kelgan muammoni oʻrta maxsus kasb-hunar kollejlari, sanʼat gimnaziyalari va litseylarining oʻquv rejalariga xalq amaliy sanʼati turlarini kurs sifatida, umumtaʼlim maktablarida esa toʻgarak yoki faqultativ mashgʻulotlari sifatida oʻrganish yoʻli bilan yanada jonlantirish yoʻllarini izlab topishimiz zarur.

Tanlangan bitiruv malakaviy ishimiz mavzusining dolzarbligi umumtaʼlim maktablari va oʻrta maxsus kasb-hunar kollejlariida xalq amaliy sanʼati turlaridan naqqoshlik sanʼati mashgʻulotlarida shu sanʼat turiga boʻlgan qiziqishni yanada oshirish, naqqoshlik haqidagi nazariy va amaliy bilimlarni rivojlantirish, yangi-yangi qoʻshimcha maʼlumotlar bilan tanishtirish, ularning koʻnikma va malakasini shakllantirishga, rivojlantirishga boʻlgan zaruriyat bilan belgilanadi.

Shunday qilib bitiruv malakaviy ishining mavzusini “KHKlari o`quvchilariga yog`ochdan yasalgan buyumlarga naqsh solish texnologiyasini o`rgatish“ deb tanladik.

**Muammoning o`rganilganlik darajasi.** Ushbu tadqiqot muammolari bilan bog`liq ilmiy izlanishlar quyidagi yo`nalishlarda olib borilgan:

- O`quvchilarga san`at turlarini, xususan xalq amaliy san`ati turlarini o`rgatish masalalari bilan O`zbekistonda S. Abdullaev, S. Bulatov, A.Vasiqov, Q.Qosimov va b. shug`ullanishgan;

- O`zbekiston milliy maktablari o`quvchilarini xalq amaliy san`ati va tasviriy san`at vositalari yordamida badiiy va estetik tarbiyalash masalalari bilan S.F.Abdullaev, A.A.Omonullaev, I.Axmedov, S.S.Bulatov, J.A.Darmenov, Q.Qosimov, R.Hasanov va b.;

Kasb-hunar kollejlarida naqqoshlik san`ati to`garagini tashkil qilish bo`yicha mavjud darslik, o`quv va metodik qo`llanmalar hamda shu yo`nalishdagi boshqa adabiyotlarning tahlilidan shu narsa ma`lum bo`ldiki, hozirgi vaqtgacha:

- Kasb-hunar kollejlarida naqqoshlik san`atini o`rganish muammolari ko`rib chiqilmagan;

- naqqoshlik san`ati to`garagi mashg`ulotlarini samarali tashkil qilish yo`llari, vositalari va metodlari zarur darajada ishlab chiqilmagan;

- Kasb-hunar kollejlarida naqqoshlik san`ati to`garagi mashg`ulotlari uchun hozirgacha o`quv-metodik kompleks yaratilmagan.

Bu ahvol Kasb-hunar kollejlarida naqqoshlik san`ati to`garagi mashg`ulotlarini tashkil qilishni qiyinlashtirib, unga salbiy ta`sir qiladi.

Ushbu muammoning echimini topish mazkur tadqiqotning dolzarbligini belgilaydi.

Yuqoridagi barcha fikr va mulohazalarni bir joyga jamlab bitiruv malakaviy ishimning maqsadi va mazmunini belgilab oldik.

Tadqiqotning maqsadi: Kasb-hunar kollejlarida naqqoshlik san`atini to`garaglarda o`rganish nazariyasi va metodikasini takomillashtirish yo`li bilan ta`lim jarayoni sifati va samaradorligini orttirish.

Tadqiqot vazifalari:

--- naqqoshlik san`atini Kasb-hunar kollejlarda hozirgi kunda o`qitilishini tahlil qilish, talabalarni xalq amaliy san`atining keng tarqalgan turlaridan biri – naqqoshlik san`ati usullarini o`zlashtirishlarini o`ziga xos tomonlarini o`rganish.

--- naqqoshlik san`ati fanidan o`quvchilar o`zlashtirishi zarur bo`lgan nazariy materiallar va bajarishi zarur bo`lgan amaliy ishlar turlarini tanlash mezonlarini ishlab chiqish.

-- xalq amaliy san`at turlaridan naqqoshlik san`atiga taaluqli bo`lgan yangi ma`lumotlar to`plash;

-- naqqoshlik san`atida qo`llaniladigan atamalarni yig`ish;

-- naqqoshlik san`atining tarixiy rivoji va maktablari, namoyondalari haqidagi bilimlarga ega bo`lish;

-- naqqoshlik san`atida naqsh turlarining qo`llanilishini o`zlashtirish;

-- naqqoshlik san`atida qo`llaniladigan naqsh kompozitsiyalarini tuzish, ranglash va pardoqlash texnologiyasini puxta egallash;

-- buyumlarga naqsh kompozitsiyasini ishlashga tayyorlashni o`ziga xos xususiyatlari bilan tanashish;

-- naqsh kompozitsiyasi ishlash bosqichlarini mukammal egallash;

-- yangi uslubdagi naqsh kompozitsiyalarini yaratishga erishish;

-- shu yo`nalishda o`rta maxsus kasb-hunar kollejlarda naqqoshlik to`garag mashg`ulotlarini tashkil qilishni metodikasini takomillashtirish;

--to`garag mashg`ulotlari jarayonida o`quvchilar ijodiy faoliyatini yanada rivojlantirish;

-- KHK talabalarining naqqoshlik san`atiga bo`lgan muhabbatini uyg`otish;

-- KHK talabalarining nazariy va malakaviy bilimlarini mustaxkamlash;

--KHKlarida naqqoshlik san`ati to`garag mashg`ulotlarini tashkil qilish uchun dasturlar va o`quv- uslubiy qo`llanmalar ishlab chiqish;

-- naqqoshlik san`atining boshqa san`at turlari bilan o`zaro aloqasini aniqlash va hakoza kiradi.

**Tadqiqot ob`ekti:** Kasb-hunar kollejlardagi tasviriy san`at ta`lim yo`nalishidagi o`quv-tarbiyaviy jarayon.

Tadqiqot predmeti: Kasb-hunar kollejlarda olib borilayotgan ta'lim jarayonida naqqoshlik san'ati to'garagi mashg'ulotlari orqali o'rganish bilan talabalarning badiiy-nazariy va metodik tayyorgarligi samaradorligini oshirish.

Tadqiqotning tajriba-sinov ishlari. Tadqiqot ishining asosiy g'oyalari va naqqoshlik san'ati to'garagi mashg'ulotlarini tashkil qilishni takomillashtirish bilan bog'liq tajriba-sinov o'qishlari Kasb-hunar kollejlarda o'tkaziladi.

Tadqiqotning ilmiy yangiligi:

1. Kasb-hunar kollejlarda naqqoshlik san'ati to'garagi mashg'ulotlarini tashkil qilishning ilmiy-metodik asoslari Respublikamizda ilk marotaba o'rganilib, ta'lim jarayoniga tadbiiq qilinadi.

2. Kasb-hunar kollejlarda o'quvchilarni naqqoshlik san'ati bo'yicha egallashi zarur bo'lgan ko'nikma va malakalarini hisobga olgan holda naqqoshlik san'ati mashg'ulotlarini tashkil qilishning yangilangan, samarali mazmun va metodikasi yaratiladi.

3. Naqqoshlik san'ati darslarining mazmuni takomillashtirilib, shu fan bo'yicha marotaba o'quv-metodik tavsiyanomalar yaratiladi.

4. Naqqoshlik san'ati mashg'ulotlari samaradorligini orttirish uchun mashg'ulotlarda kompyuter va zamonaviy axborot texnologiyalaridan foydalanish imkoniyatlari yaratiladi.

Tadqiqotning ilmiy-nazariy va amaliy ahamiyati. Kasb-hunar kollejlarda naqqoshlik san'atini to'garag mashg'ulotlarida o'rgatishni shakllanishi; o'quvchilarning naqqoshlik san'ati bo'yicha egallashi zarur bo'lgan bilim, ko'nikma va malakalari aniqlanadi; naqqoshlik san'ati mashg'ulotlarining mazmuni o'rganib chiqilib, uni takomillashtirish bo'yicha ilmiy asoslangan takliflar ishlab chiqiladi; naqqoshlik san'ati to'garagi mashg'ulotlari bo'yicha amaldagi o'quv dasturini takomillashtirish bo'yicha takliflar ishlab chiqiladi; o'quv-metodik kompleksni ta'lim jarayoniga kiritish metodikasi ishlab chiqilib, amaliyotda sinab ko'riladi.

Tadqiqotning muhim nazariy va amaliy g'oyalaridan Respublikamiz Kasb-hunar kollejlarda naqqoshlik san'atini to'garag mashg'ulotlarida o'qitishda va metodik ta'minotini takomillashtirishda foydalanish mumkin.

Bitiruv malakaviy ishida foydalanilgan adabiyotlar tahlili:

Azimov.I. O`zbekiston naqshu nigorlari.

Mazkur kitobda naqsh san`atining shakllinish tarixi, uning me`morchilikda tutgan o`rni va unda naqqoshlik san`atining rivojlanish bosqichlari, hozirgi kuni haqidagi ma`lumotlar yoritilgan bo`lib, shu bilan birga O`zbekiston hududida joylashgan qadimiy shaharlardagi me`morchilik obidalariga ishlangan naqshu nigorlardan ajoyib namunalar berilgan.

Apuxtin O.K. Badiiy naqsh maktabi.

Ushbu o`quv qo`llanmasi maktab tasviriyl san`at to`garaklariga va qadim zamonlardan beri O`zbekistonda keng qo`llanilib kelingan xalq san`atining ajoyib turlaridan biri bo`lgan naqqoshlik san`ati bilan qiziquvchilarga mo`ljallangan.

Qo`llanmada naqqoshlarning ko`p yillik tajribasini sistemalashtirishga harakat qilingan.

Mashhur naqqoshlar san`atlari va ta`lim-tarbiyaga oid tajribalari asos qilib olingan ushbu qo`llanmada D. Hakimov, T. To`xtaxo`jaev tomonidan yaratilgan naqsh kompozitsiyalaridan foydalanilgan.

Shuningdek, ba`zi mashqlarga namuna sifatida kiritilgan tasviriyl materiallar naqqoshlar H. Qosimxo`jaev, S. Norqo`ziev, Yo.Raufov va boshqalarning arxivlaridan olingan.

Qo`llanmaning nazariyl qismini ishlashda san`atshunoslikka oid e`lon qilingan materiallardan foydalanilgan.

Bulatov S.S. O`zbek halq amaliyl bezak san`ati.

Mazkur o`quv qo`llanmasi maktab tasviriyl san`at to`garaklariga va qadim zamonlardan beri O`zbekistonda keng qo`llanilib kelingan xalq san`atining ajoyib turlaridan biri bo`lgan xalq amaliyl bezak san`atining barcha turlariga qiziquvchilar uchun mo`ljallangan. Unda naqqoshlarning ko`p yillik tajribasini sistemalashtirishga harakat qilingan.

Ushbu qo`llanmada mashhur naqqosh va ustalar Usta Shirin Murodov, D. Hakimov, T. To`xtaxo`jaev, Tohirjon Usmonovlar tomonidan yaratilgan naqsh kompozitsiyalari va ta`lim-tarbiyaga oid tajribalari asos qilib olingan.

Qo`llanmaning nazariyl qismini ishlashda san`atshunoslikka oid e`lon qilingan

materiallardan ham keng foydalanilgan.

O`quv qo`llanma xalq ijodiyotining ko`pgina havaskorlariga xalq amaliy bezak san`atining sirlarini anglashga va boy tajribalari bilan tanishishga yordam beradi.

Bulatov S.S. Dadashev.I. Naqsh alifbosi .

Mazkur o`quv-metodik qo`llanmasi maktab tasviriyl san`at to`garaklariga va naqqoshlik san`atiga qiziquvchilar uchun mo`ljallangan. Unda zamonaviy naqqoshlik san`atida qo`llanilayotgan yangi uslubdagi naqsh elementlar, ularni chizish metodikasi va nazariyasi yoritilgan.

O`quv-metodik qo`llanma zamonaviy naqqoshlar tomonidan yaratilgan naqsh elementlari, naqsh kompozitsiyalari va ta`lim-tarbiyaga oid tajribalari asosida yaratilgan.

Mirzaaxmedov M. Materiallarga badiiy ishlov berish

Ushbu o`quv qo`llanmasi maktab tasviriyl san`at to`garaklariga va qadim zamonlardan beri O`zbekistonda keng qo`llanilib kelingan xalq amaliy bezak san`atining ajoyib turlaridan naqqoshlik, ganchkorlik, naqqoshlik san`atlari bilan qiziquvchilarga mo`ljallangan.

Qo`llanmada ham naqqoshlarning ko`p yillik tajribasini sistemalashtirishga harakat qilingan.

Mashhur naqqoshlar san`atlari va ta`lim-tarbiyaga oid tajribalari asos qilib olingan ushbu qo`llanmada D. Hakimov, T. To`xtaxo`jaev tomonidan yaratilgan naqsh kompozitsiyalaridan foydalanilgan.

Shuningdek, ba`zi mashqlarga namuna sifatida kiritilgan tasviriyl materiallar naqqoshlar H. Qosimxo`jaev, S. Norqo`ziev, Yo.Raufov va boshqalarning arxivlaridan olingan.

Qo`llanmaning nazariy qismini ishlashda san`atshunoslikka oid e`lon qilingan materiallardan foydalanilgan.

Zahidov. P.Sh. Ferganskaya rospis.

Mazkur kitobda Farg`ona naqqoshlik maktabining o`ziga xos xususiyatlari, uning namoyondari haqida ma`lumotlar yoritish bilan birga Farg`ona naqsh maktabi namoyondalari va ularning ijodiy ishlaridan namunalar keltirilgan.

Kitob naqqoshlik san`atiga qiziquvchilarga mo`ljallangan.

Pritsa. I. M. Tashkentskaya rospisъ.

Ushbu kitobda mashhur naqqosh T. Arslonqulov tomonidan yaratilgan me'morchilikda qo'llanilgan naqsh kompozitsiyalari va ta'lim-tarbiyaga oid tajribalari asos qilib olingan. Unda naqqoshning ko'p yillik tajribasini sistemalashtirishga harakat qilingan.

Mazkur kitob maktab tasviriy san'at to'garaklariga, xalq amaliy bezak san'atining barcha turlariga qiziquvchilar uchun mo'ljallangan.

Rempel, L.I. Arxitekturniy ornament Uzbekistana.

Ushbu kitob qadim zamonlardan beri O'zbekiston naqqoshlik maktabida keng qo'llanilib kelingan xalq san'atining ajoyib turlaridan bo'lgan naqqoshlik, ganchkorlik va kulolchilik san'ati bilan qiziquvchilarga mo'ljallangan.

Kitobda o'zbek me'morchilikning ko'p asrlik tajribalarini sistemalashtirishga harakat qilingan. Shuningdek, uning nazariy qismini ishlashda san'atshunoslikka oid materiallar ham yoritilgan.

Qosimov. Q. Naqqoshlik.

Mazkur o'quv-metodik qo'llanmasi maktab tasviriy san'at to'garaklariga va qadimdan O'zbekistonda keng qo'llanilib kelingan xalq san'atining ajoyib turlaridan biri bo'lgan naqqoshlik san'atiga qiziquvchilar uchun mo'ljallangan. Unda mashhur naqqoshlarimizning ko'p yillik tajribasini sistemalashtirishga harakat qilingan.

Ushbu metodik-qo'llanmada mashhur naqqosh D. Hakimov, T. To'xtaxo'jaev, Tohirjon Usmonovlar tomonidan yaratilgan naqsh kompozitsiyalari va ta'lim-tarbiyaga oid tajribalari asos qilib olingan.

Qo'llanmaning nazariy qismini ishlashda san'atshunoslikka oid e'lon qilingan materiallardan ham keng foydalanilgan.

O'quv-qo'llanma xalq ijodiyotining ko'pgina havaskorlariga naqqoshlik san'atining sirlarini anglashga va boy tajribalari bilan tanishishga yordam beradi.

Shuningdek, ba'zi kiritilgan tasviriy materiallar naqqoshlar H. Qosimxo'jaev, S. Norqo'ziev, Yo. Raufov va boshqalarning ijodiy ishlaridan olingan.

Egamov. H. Bo'yoqlar bilan ishlash.

Mazkur qo'llanmada tasviriy san'atda rangshunoslik, ranglarning turlari,

ularning qo'llanilish sohalari kabi materiallar keng yoritilgan.

Ushbu metodik qo'llanmasi maktab tasviriyl san'at to'garaklariga va xalq san'atining ajoyib turlaridan biri bo'lgan naqqoshlik san'atiga qiziquvchilar uchun ham mo'ljallangan.

I BOB. KHKlarida naqqoshlikdan to'garaklar tashkil qilishning metodik asoslari

I.1. Kasb-hunar kollejlarda naqqoshlik san'atini o'rgatishning xususiyatlari va vazifalari. O'quv jarayonini tashkil qilish

Kasb-hunar kollejlaridagi badiiy naqqoshlik to'garagi ishlarini ijodiy jarayonini o'quvchining o'ziga qiziqish asosida yo'lga qo'yish kerak.

Birinchi navbatda hunar o'rgatishga harakat qilinadigan, bu ish o'quv vaqtining ko'p qismi ajratiladigan maxsus maktablardan farqli o'laroq mazkur to'garakda o'quvchilarning ijodkorligi birinchi o'ringa qo'yilishi lozim. To'garak qatnashchisi ijodiy jarayonidan qoniqish xosil qilib, o'z g'oyalarini yaxshiroq ifodalash uchun zarur hunarni xam egallaydi. Kupincha to'garak qatnashchilari ana shu hunarni o'rganishga doir doimiy va sistemali mashg'ulotlarga qiziqadilar

Ta'lim jarayoni maxoratini uzluksiz oshirib borishga qaratilishi kerak albatta. Lekin bunga erishish uchun to'garak qatnashuvchilarda mashg'ulotlarga qiziqishni doimiy saqlab qolish kerak. Hisobga olinishi kerak bo'lgan ikkinchi o'ziga faktor to'garak qatnashchilarining yosh xususiyatlaridir.

Kasb-hunar kollejiga kelgunga kadargi kichik, o'rta va katta bolalik davrida bilimlarni to'plaganligi, ko'nikmalarni shakllanganligi, eng intensiv sur'atda amalga oshaganligi muxim ahamiyatga ega. Bu jarayon urta umumta'lim maktabida tashkil kilingan tugarak mashg'ulotlarida poydevor kuyilganligiga ishonch xosil kilinishi lozim. Bu jarayonlarni yana bir marta mustaxkamlashga xarakat kila boshlashimiz kerak. Eng muximi shundakai, predmetlar dunyosi va boliq xodisalarining aks etishi mantiqiy fikrlash uchun o'quvchining miyasiga xos yuzaki mushoxadaning shubxasis, sodda formasida sodir bo'ladi. Shunga ko'ra yana bir bora xuddi ana shu qulay yoshda nusxasi ko'chiriladigan ob'ektlarni maxsus tanlash, ustaxonani did bilan jixozlash va tarbiyaning puxta o'ylangan metodlari orqali bolaning miyasiga didni, tarbiyaga odatlinishini, go'zallikka intilishini, atrofdagi didsizlik va xuniklikdan tug'ri ta'sirlanishni "o'z-o'zidan ma'lumdek" singdirish va o'rnashtirish lozim.

Kasb-hunar kollejlarida xam umumta'lim maktablaridagidek o'quvchida tabiiy o'sishning borishiga g'oyat ehtiyotkorlik bilan yondashish, tabiiy mayillarning namoyon bo'lishiga yordam berish va naqsh bilan shug'ullanishda noo'rin tushinchalar vujudga kelishiga yo'l qo'ymaslik kerak. SHunga ko'ra o'quvchilar bilan ishlashda material ularga tushinarli bo'lishi uchun nima qilish kerakligi masalasi birinchi o'ringa qo'yiladi.

To'garak mashg'ulotlari avvalo o'quvchilarning umumiy kamolotiga ya'ni ularda diqqat, kuzatuvchanlik, obrazli hamda fazoviy tafakkur, mehnatsevarlik, iroda va xakozalarning rivojlanishiga yordam berishi kerak. Lekin xar xolda bu mashg'ulotlarning asosiy vazifasi o'quvchilarda estetik badiy didni tarkib toptirish, ulaning maxsus badiiy faoliyatiga qobiliyatlarini aniqlash va takomillashtirishdir. Pedagogik jixatdan to'g'ri, puxta o'ylab tashkil etilgan mashg'ulotlar to'garakka iloji boricha ko'proq o'quvchilarni jalb qilish imkonini beradi, bu esa kelgusida kasb tanlashning asosi bulib xizmat kiladi.

Kasb-hunar kollejlarida o'quvchilarni to'garak ishiga jalb qilish va ulardan mashg'ulotlarga ishtiyoq uyg'otishning birinchi va asosiy vositasi ustaxonani puxta o'ylab jozibali, ish vaziyatini yaratadigin va bir yo'la badiy didning namunasi buladigan qilib jixozlashdir. Ustaxona qanchali chiroyli jixozlansa , o'quvchilar to'garakka shunchalik ishtiyoq bilan qatnashadilar, o'zlari shug'illanayotgan sa'nat turiga shunchalik qiziqish bilan qaraydilar.

Ustaxonani jixozlashda to'garak eng yaxshi ishlaridan imkoni bo'lsa, xalq ustalarining asarlaridan foydalanish mumkin. Ustaxona ozoda va shinam bo'lishi undagi barcha asboblar o'z joyida turishi va ularni mashg'ulot boshlanishida starosta yoki navbatchi tarqatishi lozim. ana shunda bolalar darrov ijodiy muxitga kiradilar va rahbar oldindan tayyorgarlik ishlariga yoki tegishli intizom o'rnatishga vaqt sarflab o'tirmaydi.

To'garak mashg'ulotlarini muvaffaqiyatli o'tkazishning ikkinchi muhim omili ta'lim jarayoning tashkil kilishdir. Tugarak ishlarini xar bir mashg'ulot puxta o'ylab va izchil ifodalangan, mahoratni egallash bosqichlari ko'rsatilgan plan bo'yicha olib borish kerak. To'garak rahbari shaxsining sifatlari xam muhim ro'l o'ynaydi. Odatda u xurmat qozonadi, o'quvchi uning ko'rsatmalarini sidqidildan

bajaradilar, unga taqlid qiladilar. Bularning hammasi ijodkorlikda alohida kasb etadi.

Raxbar to'garak qatnashchilari uchun ularning ijodini qadrlaydigan yagona shaxsdir. O'quvchilar o'z ijodlarining natijasiga raxbarning qiziqish bilan qarayotganini xis etsalar, uning ishonchini oqlashga tirishadilar. Raxbar topshiriqni qanday bajarish kerakligini ko'rsatadi va o'zi ham o'quvchilar bilan ishlaydi.

Rahbarning yaqqol namuna ko'rsatishi juda muhim bo'lib, bolalarning ishda malakalarini o'zlashtirishi jarayonini tezlashtiradi, ularning idrok etishini tegishli yo'nalishga soladi, rahbarning mavqeini oshiradi. Binobarin ko'p marta aytgandan bir marotaba ko'rsatish yaxshi.

To'garaklarda ishlash uchun mutaxasislarni-hunarmand, halq ustalari va ijodiy faoliyatiga qobiliyatli kishilarni jalb qilish zarur. O'quvchilarni to'garakka qiziqtirishning navbatdagi muhim omili to'garak ishining aniq maqsadga qaratilishidir. To'garak qatnashchilari o'zlari bajarayotgan ishning nimaga mo'ljallanganini ya'ni undan pionerlar xonasini, vestibulni, kabinetni, o'qituvchilar xonasini yoki zalni bezashda, ko'rgazma tashkil qilishda foydalanishini bilishlari kerak. To'garakdagi amaliy ishlarni muzeyga borish, tarixiy va madaniy yodgorliklar bilan tanishish, halq amaliy san'atining ana shu qadimiy turining tarixi bo'yicha lektsiyalar uyushtirish kabi tadbirlar bilan birga amalga oshirish mumkin.

I.2. Naqqoshlik san`atini bosqichma-bosqich o`rgatishning metodikasi

Kasb-hunar kollejlarda estetik tarbiya yosh avlodni har tomonlama kamol toptirishga hizmat qiladi.

Estetik tarbiya-tarbiyaning tarkibiy qismi, shaxsning shakllantirishning ta'sirchan vositalaridir. U yosh avlodning ma'niviy kamol topishiga yordam beradi, unda estetik ehtiyojlarni vujudga keltiradi, go`zallik ideallarini, badiiy didni, texnik o`quv va malakalarni shakllantiradi, bolaga atrofdagi voqelik go`zalliklarni to`liq idrok etishda ko`maklashadi. Yosh avlodning tarbiyasini yangi jamiyat qurish vazifalari bilan, davlat qurilishi, shuningdek, yangi maktablarni barpo etish vazifalari bilan chambarchas bog`liqdir. U yangi ijtimoiy tuzimda xalq ilgari hech qachon mumkin bo`lmagan go`zallik yarata olishini qayd qiladi, san`tning ammoga ta'sir ko`rsatishining qudratli vositasi, deb biladi.

Yuqorida aytilganidek, estetik tarbiyaning eng samarali vositasi san`at, uning har xil turlari va janrlaridir. Keyingi paytlarda halq san`tiga qiziqish kuchaygan bo`lsada, dekarativ-amaliy san`at ayniqsa halq ijodiyoti maktab praktikasida etarli darajada qo`llanmayotir. Har bir halqning an'anaviy san`ati madaniyat xazinasiga o`zining yaxshi yutuqlarini qo`shadi, kishilarning turmushini bezaydi, ularning estetik tarbiyasida hamkorlik qiladi. Shuning uchun xalq amaliy san`ati turlaridan biri naqqoshlik san`atini to`garak mashg`ulotlari orqali o`rganish muhim ahamiyat kasb etadi.

Kasb-hunar kollejlardagi badiiy naqqoshlik to`garak mashg`ulotlarini yo`lga keltirish ijodiyotning ana shu turning spetsifikasini hisobga olishni taqozo etadi va shunga ko`ra qator nazariy, hamda amaliy masalalarni ishlab chiqish zaruriyati tug`iladi. Bulardan eng muhimlari: ijodiy va texnologik jarayonlar mahsuli sifatidagi badiiy naqqoshlik asarlarining spetsifikasi, atrof-muhit bilan bog`liqligi; hozirgi kasb-hunar kollejlarning moddiy-tashkiliy imkoniyatlari, nuqtai nazardan san`atning turi sifatidagi naqqoshlik, to`garak binolarini tashkil etishga talablar qo`yiladi.

Naqsh san`atini o`rganishda eng zarur tadbir - O`zbekiston dekorativ-amaliy san`atidagi badiiy ijodiyotning ana shu turi rivojlanishining tarixiy bosqichlari va qonuniyatlari bilan tanishishdir. Hususan tarixiy materiallar o`quvchilarda badiiy naqqoshlik spetsifikasi, uning ko`rgazmali muhitni tashkil etishdagi, kishilar hayotidagi roli, ya`ni nazariy estetik asoslari haqida to`g`ri tasavvur hosil qilish imkonini beradi. O`quvchilarni o`zbek naqshining uslubiy xususiyatlari bilan tanishtiradi, bir yo`la o`zbek halqining juda boy madaniyati, ajoyib an`analari bilan ham tanishtirish lozim. Qadimdan saqlanib qolgan mehnat qurollariga, maishiy buyumlarga qarab uzoq o`tmishdagi kishilarning hayoti to`g`risida hulosasi chiqarish mumkin.

Hunarmand ustalar kishini lol qoldiradigan ajoyib naqsh kompozitsiyalarini yaratib, ana shu naqshlarda o`zlarining fikr va orzu-umidlarini ifodalab, ularni “odamga o`xshab gapirishga” majbur qilganlar. Qadimgi O`rta Osiyo madaniyati ining vakillari Ibn Sino, Beruniy, Nosir Xisrav, Sulton Ali Mashhadiy, Mirzo Ulug`bek, Nizomiy, Alisher Navoiy, Jomiy, Umar Hayyom va boshqalar qadimgi amaliy san`at sohiblarining asarlarini, mahoratlarini halq naqshlarini arxetektura konstruksiyasiga uyg`un bog`lay olganini madh etganlar.

Pedagogning vavzifasi – o`quvchilarga xalq ustalarining asarlarini ko`ra olish va tushinishni, san`atkorning poetik fikrlarini ilok etishni o`rgatishdir. Buning uchun o`quvchi badiiy naqshning mohiyati nimalardan iboratligini, usta asarni qanday qilib yaratishini, bu san`atning qanaqa janrlari mavjudligi va hokozalarni bilish kerak. Dekorativ- amaliy san`atning bilishni pedagogik jihatdan muhimligi sababini quyidagilar bilan izohlash mumkin: san`atning ana shu turiga oid asarlar o`quvchilarda moddiy olamni idrok etishning estetik madaniyatini tarkib toptiradi, voqelikka estetik munosabatni shakllantiradi, ularga tasviriy san`atning boshqa turlariga xos badiiy ifoda vositalarini chuqurroq bilishda yordam beradi.

O`quvchilarda psixologik kayfiyatni vujudga keltirish naqsh to`garaklaridagi ta`lim -tarbiya ishlari samaradorligini oshirishning muhim omillaridir. Bunga tajribali naqqosh o`zining amaliy ishni namoyish etishi yoki o`tmishdagi ustalarning asarlarini tahlil qilish orqali erishishi mumkin. Masalan, “islami” yoki “girihi” naqshlarining qanday ishlanishini ko`rsatish yaxshi omilddir. O`quvchilar

ustaning qo'l harakatlari natijasida naqsh elementlarini qo'shib chizib borishga, ranglarni uyg'unlashuvini ko'rgan zahoti o'z ustalarining ishini takrorlashga harakat qiladi.

Yuqorida aytilgandek, naqqoshlik to'garagini tashkil etishda naqqoshlik san'atida yagona texnologiya mavjud emasligi bilan ham murakkablashadi. Har bir pedagog, rahbar yoki usta xalq naqshi elementlarini o'zining o'zbek naqshiga xos xususiyatlari to'g'risidagi ko'pincha noaniq tasavvurga asoslanib tushintiradi.

Hozirgi estetik tarbiya nazariysi va praktikasidagi kollej yoshidagi o'smirlarda ranglarni estetik xis qilishning rivojlanishini o'rganishga aloxida e'tibor beriladi. Bu masala o'quvchilarga badiiy ta'lim berish va ularni kamol toptirishning mazmuni hamda metodlarini yanada takomillashtirishda muhim bo'lim hisoblanadi. Ko'p yillik tajriba o'quvchilar ranglar nomini yaxshi o'zlashtirishlarni, rangni faqat asosiy xarakteristikasi bo'yicha ham farqlashni tez o'rganishlarni, kolorit va ranglar munosabatining ayrim masalalarini yaxshi tushintirishlarini ko'rsatadi.

Naqshda qandaydir element o'zining ma'naviy va kompozitsion ahamiyati bilan aloxida o'rin tutsa, uning rangi maxsus ajralib turishi mumkin, bunday xolda naqsh kompozitsiyasining kolorit yaxlitligi buzilmaydi. Bunday element ikkinchi darajali, qo'shimcha bo'lgan hollarda esa uni ajratadigan rang kompozitsiyadagi asosiy narsaning idrok etilishiga monelik qiladi, uning uyg'unligini buzadi, undan chiqib ketadi. Tusi qarama-qarshi ranglarni qo'shilishi eng uyg'un bo'ladi. Ammo bunday uyg'unlik har doim ham foydali bo'lavermaydi. Ayrim xollarda tusi qarama-qarshi ranglarning birikishi haddan tashqari keskinlikni vujudga keltiradi.

Mehnat hamda badiiy faoliyatning boshqa anchagina turlaridagi kabi naqqoshlikda ham malaka va mahoratni egallash tobora murakkablashib boradigan bosqichlarda amalga oshadi, o'quvchilarning ma'lum darajada umum ta'limiy va psixologik tayyorgarligini talab qiladi. SHuning uchun naqqoshlik to'garaklari barqaror va muvaffaqiyatli ishlashida ulardagi o'quvchilarni to'g'ri guruxlash muhim ahamiyatga ega.

To'garakdagi o'quvchilarni baholash birinchidan, ta'limiy-ijodiy dasturning murakkabligi ortib borishini ta'minlashi, ikkinchidan esa bitta guruxdagi har bir o'quvchi bilan sinxron pedagogik ish borishi imkonini berishi kerak. Nihoyat, o'quvchilarni yoshiga qarab differentsiatsiyalash to'garak mashg'ulotlarida ular oldiga qo'yiladigan vazifalrning kasb –hunar kollejidagi majzburiy o'quv predmetlarida o'zlashtirilgan bilim va malakalariga muvofiqligini taminlash lozim.

Albatta to'garak va majburiy ta'lim dasturlari o'zaro to'la muvofiq bo'lmaydi. To'garak ishini maktabdagiga qaraganda har bir guruxga faqat bir xil bosqich o'quvchilarini jamlagan holda tashkil etishni ta'minlash maqsadga muvofiq. Guruxlarni har bir bosqichga qarab differentsiatsiyalashda asosiy qoidani buzishga majbur etadigan yana boshqa sabab - o'quvchilarda badiiy iste'dod va qobiliyatlarning turli darajada rivojlangan bo'lib, xuddi shunga ko'ra badiiy ta'lim vazifalarini hal qilishda katta farqlarni kuzatish mumkin. Ana shularni nazarda tutib o'quvchilarni to'garakka qabul qilishdan oldin ularning qobiliyatlarini, tayyorgarlik darajasini aniqlash kerak.

Ma'lumki, dastlabki bosqichda ta'lim olayotgan o'quvchilarning ayrimlari keyingi keyingi bosqich kategoriyasidagi o'quvchilarga tavsiya etiladigan dastur bo'yicha badiiy ijodning har xil turlarini egallash uchun zarur imkoniyat va katta resurslarga ega bo'ladilar. O'quvchilarning badiiy tayyorgarligi va qobiliyati o'z guruxi uchun etarli darajada rivojlanmaganligiga asoslanib kichik gruppadagi mashg'ulotlarga jalb etish ham ma'qul emas. Shunday qilib, to'garak guruxlarining yosh sostavini belgilaydigan ikkita asosiy omil mavjud: 1)to'garak gruppalaridagi mashg'ulotlar dasturining kasb-hunar kollejidagi majburiy ta'lim dasturlariga rasman muvofiqligi; 2)har bir o'quvchining mazkur guruxdagi mashg'ulotlarga umumiy va maxsus tayyorgarligining haqiqiy darajasi.

Bizningcha, turli davrlarda tabiiy o'sish va ta'lim –tarbiya jarayoni natijasida egallagan jismoniy va psixik imkoniyatlari to'g'risidagi ma'lumotlarni tahlil qilishda asosan quyidagi jihatlarni etiborga olish zarur: 1) o'quvchilardagi naqqoshlik ishlarining qandaydir bitta yoki bir nechta turlari bilan shug'illanishga jismoniy tayyorgarlikni; 2) bitta guruxdagi bir xil yoshli

o`quvchilarning psixologik birlashuvini; 3) bir necha “yondosh” o`quv yillaridagi ta`lim dasturlarining o`z harakteri va yo`nalishlari bo`yicha, tasviriy san`at, fizika, ximiya, matematika, mehnat, adabiyot, tarix fanlarida o`rganiladigan masalalarni quyishning murakkabligi va chuqurligi darajasi bo`yicha o`zaro yaqinligini.

Ana shu uchta jihatning naqqoshlik to`garagida o`quvchilarni bosqichlarga bo`lib jalb qilish ahamiyatini ko`rib o`tamiz.

O`quvchilar 1-kursdan boshlab to`garak mashg`ulotlariga jalb qilish maqsadga muvofiqdir. To`garak qatnashchilarni uchta guruxga ajratib qabul qilinadi.

1-kurs talabasi jismoniy va aqliy rivojlanishi unga naqqoshlik to`garagida shug`ullanishga to`la imkon beradi. Badiiy ijodning ana shu turining texnika texnologiyasi ortiqcha jismoniy kuch sarflashni, uzoq vaqt muskullarni zo`riqtirib ishlashni va diqqatni bir joyga to`plashni talab qiladi .

2-3-kurs o`quvchilarga qo`yiladigan talablar ortadi, beriladigan topshiriqlar murakkablashadi, o`quvchilarda esa mashg`ulotlarga barqaror qiziqish namayon bo`ladi, sabotlilik, o`z ijodiga jiddiyroq munosabat vujudga keladi. Respublikaning kasb-hunar kollejlarning mashg`ulot dasturlari to`la to`kis ana shu ma`lumotlarga asoslanadi. Badiiy naqqoshlik to`garagi mashg`ulotlari dasturi quyidagi talablarni to`la qondiradi:

1. Kasb-hunar kollejlari oldida turgan ta`lim-tarbiya vazifalariga javob beradi.
2. Mashg`ulotlar vazifalarning asta- sekin murakkablashuvini hisobga olib tashkil etiladi.
3. Mashg`ulotlar kerakli materiallar, asbob-uskunalar va bajarish texnikasi haqida to`la tasavvur hosil qiladi.
4. Naqqoshlik mashg`ulotlari o`quvchilarning badiiy didini va ijodiy qobiliyatini ruvojlantirishi, halq ijodiga va ustalariga qiziqish hamda muhabbat uyg`otishi kerak.

Dastur quyidagi printsiplar asosida tuziladi:

1. Naqqoshlikning spetsifikasini hisobga olish.

2. To'garak qatnashchilarining yosh xususiyatlarini va san'atning ana shu turiga qiziqishlarni hisobga olish.

3. Ta'limiy-ijodiy vazifaning asta sekin murakkablashuvi.

4. O'zbek halq naqqoshligining milliy an'analari.

Birinchi fazo – harakatning ayrim elementlarini o'rganish va qator aloxida detallarni bitta butun qilib birlashtirish. To'garak rahbari ana shu bosqichda cho'tkani qo'lda qanday tutish kerakligini, to'g'ri chiziq va egri chiziqlar qanday chizilishini ko'rsatadi. Bu ish avval bolaga bir muncha qiyinchilik tug'diradi; uning qo'llari va barmoqlari o'ziga yaxshi itoat etmaydi, bu hol ayniqsa qog'ozga emas, balki boshqa materallarga ishlashda ko'proq yuz beradi. To'garak qatnashchilari cho'tkani ikkita barmoq bilan ushlab faqat jimjiloqqa tayanish o'rniga ko'pincha uni peroli ruchka singari ushlaydilar.

Qo'lni ishlatishda quyidagi qoidalarni bilib olish zarur. Stol yonida tirsak va ko'krak bilan tayanmay erkin o'tirish, gavdani stoldan muayyan oraliqda tutish lozim. Cho'tkani ikkita barmoq - bosh va ko'rsatkich barmoqlar bilan ushlab, ishga faqat jimjimoloqni tirab turish kerak; bordi-yu bu qiyinlik qilsa, mushtabeldan foydalanish mumkin.

I.3. Naqqoshlik san`atini to`garaklarda o`rgatish bo'yicha o`quv dasturi

t/ №	Mashg`ulotlarning mavzusi va mazmuni	Ma`ruza	Amaliy	Jami
I. Kichik gurux				
1	Kirish. Naqqoshlik san`atining shakllanish tarixi, uning maktablari va namoyondalari.	2	-	2
2	Texnika xavfsizligi qoidalari	1	-	1
3	Naqqoshlik san`atida ishlatiladigan asbob-uskunalar va materiallar.	1	-	1
4.	Naqqoshlik san`ati maktabida qo`llaniladigan naqsh naqsh turlari va naqsh elementlari. Ularning o`ziga xos xususiyatlari.	2	24	26
5.	Oddiy naqsh namunalarini chizish.	4	72	76
6.	Naqsh kompozitsiyalarda rangshunoslik. Bo`yoqlar bilan ishlash texnologiyasi.	1	7	8
7.	Oddiy naqsh namunalarini qalamda chizish.	2	26	28
8.	Yil davomida bajarilgan ishlar yakuni	2	-	2
	Jami:	15	129	144.s.
II. O`rta gurux				
1.	Oddiy naqsh namunalarining band va gullarini bo`yash.	2	22	24
2.	Naqqoshlik san`atida chiziladigan naqsh kompozitsiyasini tuzish qonuniyatlari va chizish bosqichlari.	6	-	6

3.	Naqqoshlik san`atida ruta naqsh kompozitsiyasini tuzish va ranglash.	2	25	27
4.	Naqqoshlik san`atida uchburchak ichiga naqsh kompozitsiyasini tuzish va ranglash.	2	25	27
5.	Naqqoshlik san`atida to`rtburchak ichiga naqsh kompozitsiyasini tuzish va ranglash.	2	25	27
6.	Naqqoshlik san`atida aylana ichiga naqsh kompozitsiyasini tuzish va ranglash.	2	25	27
7.	Naqqoshlik san`atida girix naqsh kompozitsiyasini tuzish va ranglash.	3	24	27
8.	Naqqoshlik san`atida gulli girix naqsh kompozitsiyasini tuzish va ranglash.	2	20	22
9.	Naqqoshlik san`atida munabbat naqsh kompozitsiyasini tuzish va ranglash.	2	24	26
10	Yil davomida bajarilgan ishlar yakuni	3	-	3
	Jami:	26	190	216.s.
III. Katta gurux				
1.	Naqqoshlik san`atida turunj naqsh kompozitsiyasini tuzish va ranglash.	2	16	18
2.	Naqqoshlik san`atida namoyon naqsh kompozitsiyasini tuzish va ranglash.	2	16	18
3.	Naqqoshlikda ishlatiladigan yog`ochlar va duradgorlik ishlari.	3	-	3

4.	Naqqoshlik san`atida yog`och buyumlarni naqshlash.	2	6	8
5.	Ramka, quticha va yog`ochdan yasalgan buyumlarni naqshlash.	2	34	36
6.	Qursichani naqshlash.	2	30	32
7.	Qabariq sirtli buyumlarni naqshlash.	2	20	22
8.	Milliy xontaxtani naqshlash.	3	30	33
9.	Binolarni bezash loyihasini ishlash.	3	40	43
10	Yil davomida bajarilgan ishlar yakuni	3	-	3
	Jami:	24	192	216 s.

I.4. Naqqoshlik fanidan talabalarning mustaqil ishlarini tashkil etish.

Talabalarga naqqoshlik san`atini o`rgatishda va uni o`qitishni hozirgi zamon talablari asosida to`g`ri tashkil etishda mustaqil ta`lim alohida o`rin egallaydi.

Talabalarga naqqoshlik fanidan mustaqil ta`lim uchun beriladigan topshiriqlar asosan, olgan bilimlarini mustahkamlash, chuqurlashtirish, o`rganilgan o`quv materiallarini takrorlash, amaliy ko`nikma va malakalarini shakllantirish uchun mo`ljallanadi. Mustaqil ta`limning mazmuni o`quv predmetining mazmun va maqsadi bilan uzviy bog`liq bo`ladi.

San`at kollelarida o`qitiladigan naqqoshlik fanidan mustaqil ta`lim mashg`ulotlarini tashkil etish mazmuni va metodikasi deyarli ishlab chiqilmagan. Bizningcha, naqqoshlik fanidan tashkil etiladigan mustaqil ta`limning taqvim-mavzu rejasi ishlab chiqilishi zarur. Unda amaliy ish va test topshiriqlari, auditoriyada va uyda bajarish uchun mo`ljallangan mustaqil ta`lim mavzusi va ularni bajarish shakllari aniq ko`rsatiladi. Natijada talabalar qator topshiriqlarni uyda mustaqil bajarishlari ta`minlanadi. Bu esa ularning malaka, ko`nikma va ijodkorlik qobiliyatlarini yanada oshiradi.

Mustaqil ta`limni samarali tashkil etishning asosiy shartlari quyidagilardan iborat: mustaqil ta`limning ilmiyligi va tadqiqot xarakterida bo`lishi; mustaqil bilish ehtiyojini orttirishi; mustaqil ta`lim ishlarini individual bajarish; mustaqil ta`limni tashkil etishga uslubiy rahbarlik qilish; talabalarning fan bo`yicha topshiriqlarni mustaqil bajarishini nazorat qilish; nazariy va amaliy bilim va ko`nikmalarini baholab borish; talabalarning "Naqqoshlik" fani va kasbga bo`lgan qiziqishini oshirish; talabalarni ijodiy fikrlashga o`rgatish; "Naqqoshlik" fani bo`yicha iqtidorli talabalarni tanlash va ularga chuqur bilim berish maqsadida nazariy va amaliy topshiriqlar tayyorlash; talabalarga oddiydan murakkabgacha bo`lgan naqsh kompozitsiyalarini tuzish, ranglash va pardoqlash, turli xil buyumlarga naqsh solish texnologiyasini kengroq o`rgatish, kompyuterlardan foydalanib naqsh kompozitsiyalarni mustaqil bajarishlari uchun shart-sharoit yaratish; talabalarning mustaqil ishlarni bajarish natijalarini baholashda joriy,

oraliq va yakuniy baholash natijalarini e'tiborga olish. Quyida "Naqqoshlik" fanidan mustaqil ta'limni bajarishga oid misollar keltirib o'tamiz.

Mavzu: «Ustoz-shogird» an'analari asosida naqqoshlikning o'rgatilishi.

Mashg'ulot uchun ajratilgan vaqt- 4 soat.

Mashg'ulot maqsadi: Hunarmandchilik odobi tarixi, hunarmandchilik mahallalari. "Ustoz-shogird" an'analari asosida naqqoshlik hunarini o'rgatilishi haqida ma'lumot berish; Ustoz odobi, shogird odobi. Ustoz- shogirdning shaxsiy va kasbiy fazilatlari, mezonlari ochib beriladi.

Mustaqil ta'limni rasmiylashtirish tartibi: titul varaqasi, mavzu, reja, matn, foydalanilgan adabiyotlar ro'yhati, foydalanilgan Internet manbalari, mustaqil ishni jildlash, matnning elektron varianti.

Ishning hajmi kamida 10-14 bet atrofida bo'lishi kerak. Taqdimot uchun tayyorlangan slaydlar ilovaga kiritiladi.

Quyidagi jadvalda naqqoshlik fanidan tashkil etiladigan mustaqil ta'lim shakllari keltirilgan.

"Naqqoshlik" fanidan tashkil etiladigan mustaqil ta'lim shakllari

№	Mavzular	Soat	Topshiriqni bajarish shakli	Bajarish uchun qo'yilgan talablar
1	«Ustoz-shogird» an'analari asosida naqqoshlikning o'rgatilishi	4	Referat	Mavzu bo'yicha reja tuziladi, adabiyot va internetdagi axborotlardan foydalanib mavzu yoritiladi. Referat xajmi 10-14 betlar atrofida bo'lishi kerak.
2	Oddiy naqsh elementlarini chizish. Gul, barg, novda, shkifta, bofta va boshqa elementlarni chizish.	4	Amaliy ish	Mavzu bo'yicha topshiriqlarni bajarish uchun reja tuziladi va amaliy ishlar bajariladi.
3	O'simlik va hayvonot	4	Amaliy	Mavzu bo'yicha

	dunyosidan olingan turli shakllarni qayta ishlash. (butalar, novdalar, shoxlar, barglar, gullar, mevalar)		ish	topshiriqlarni bajarish uchun reja tuziladi va amaliy ishlar bajariladi.
4	Oddiy naqsh namunalarini tartib raqami bo'yicha chizish.(1-10-gullar)	8	Amaliy ish	Mavzu bo'yicha topshiriqlarni bajarish uchun reja tuziladi va amaliy ishlar bajariladi.
5	Rangshunoslik texnologiyasi. Ranglash va pardoqlash turlari.	6	Referat	Mavzu bo'yicha reja tuziladi, adabiyot va internetdagi axborotlardan foydalanib mavzu yoritiladi. Referat xajmi 10-14 betlar atrofida bo'lishi kerak.
6	Oddiy naqsh namunalarini bo'yash va unga pardo berish. (1-10-gullar)	34	Amaliy ish	Mavzu bo'yicha topshiriqlarni bajarish uchun reja tuziladi va amaliy ishlar bajariladi.
7	Naqqosh ustalar ishlaridan nusxa ko'chirish.	26	Amaliy ish	Mavzu bo'yicha topshiriqlarni bajarish uchun reja tuziladi va amaliy ishlar bajariladi.
8	Ixtiyoriy namoyon naqsh kompozitsiyasini chizish, ranglash va pardoqlash.	28	Amaliy ish	Mavzu bo'yicha topshiriqlarni bajarish uchun reja tuziladi va amaliy ishlar bajariladi.
9	Buyum yuzalariga naqsh kompozitsiyasi chizish, ranglash va pardoqlash.Ko'p qirrali	26	Amaliy ish	Mavzu bo'yicha topshiriqlarni bajarish uchun reja tuziladi va amaliy ishlar bajariladi.

	stol, kursi yoki xontaxtani naqshlash.			
10	Ko'p qirrali stol, kursi yoki xontaxtani naqshlash.	29	Amaliy ish	Mavzu bo'yicha topshiriqlarni bajarish uchun reja tuziladi va amaliy ishlar bajariladi.
11	Corel Draw Graphics Suite dasturi yordamida interʼer va eksterʼerni badiiy loyihalash.	8	Amaliy ish	Mavzu bo'yicha topshiriqlarni bajarish uchun reja tuziladi va amaliy ishlar bajariladi.
12	Ma'muriy va turar joy binolarini naqshlash metodlari.		Referat	Mavzu bo'yicha reja tuziladi, adabiyot va internetdagi axborotlardan foydalanib mavzu yoritiladi. Referat xajmi 10-14 betlar atrofida bo'lishi kerak.
13	Binolarni naqshlashda turli bo'yoqlardan foydalanish va rang tuslarini tayyorlash texnologiyasi. Pardozlash, targ'il va edirma usulini qo'llash.	8	Amaliy ish	Mavzu bo'yicha topshiriqlarni bajarish uchun reja tuziladi va amaliy ishlar bajariladi.
14	Interʼerning devor yoki shift qismi uchun aylana, oval, girix va murakkab naqsh kompozitsiyalarini tuzish, ranglash va pardozlash.	8	Amaliy ish	Mavzu bo'yicha topshiriqlarni bajarish uchun reja tuziladi va amaliy ishlar bajariladi.
15	Bino eksterʼerining	8	Amaliy	Mavzu bo'yicha

	kerakli qismiga naqsh kompozitsiyalarini chizish, ranglash va pardozlash.		ish	topshiriqlarni bajarish uchun reja tuziladi va amaliy ishlar bajariladi.
	Jami:	205s		

Talabalarda mustaqil ishlash ko`nikma va malakalarini rivojlantirish bir necha bosqichda amalga oshiriladi: talabalarning ishlash faoliyati. Ko`nikma va malakalarini o`rganish va tahlil qilish; mustaqil ta`lim mazmunini belgilash va mustaqil ishlarni bajarish texnologiyasini ishlab chiqish; belgilangan ta`lim mazmuni asosida talabalarning mashg`ulot davomida va mashg`ulotdan tashqari vaqtlarda mustaqil ta`lim o`quv yuklamasi va zaruriy vaqt byudjetini aniqlash; mustaqil ishlar mazmunini ishlab chiqish, mashg`ulotlar va uy vazifalarini, mustaqil ta`limni optimal rejalashtirish; loyihalashtirilgan mustaqil ta`limni sinovdan o`tkazish; nazariy va amaliy bilimlarni o`rganish jarayonini amalga oshirish uchun mustaqil ta`lim shakllarini tanlash; uslubiy ishlanmalar, dasturli animatsiyalar ishlab chiqish; talabalarning o`quv materiallarini o`zlashtirish, mustaqil ishlash, komp`yuterdan foydalanish ko`nikmalarini nazorat qilish va baholash. Naqqoshlik fanidan mustaqil ishlarni auditoriyada va uyda bajarish mumkin. Auditoriyada bajariladigan mustaqil ishlarni professor-o`qituvchi tashkil etadi. Talabalar topshiriqlarni mustaqil bajaradi. Professor-o`qituvchi talabalarning topshiriqni qanday bajarishini nazorat qilib turadi. Uyda bajaradigan mustaqil ta`lim ma`lum maqsadda tashkil etiladi. Bunda qo`shimcha adabiyotlardan keng foydalaniladi. Talabalarning mustaqil ta`limi natijasi ularning to`plagan balliga qarab baholanadi. Semestr oxirida talabalar mustaqil ta`lim ishlarini bajarish bo`yicha to`plagan ballar yig`indisi umumiy ballning 55 foizidan kam bo`lmasligi kerak. Aks holda, talaba topshiriqlarni bajarmagan hisoblanadi. Bunday talaba bilan individual ishlashga to`g`ri keladi.

I.5. Naqqoshlik mashg'ulotlarida texnika vositalaridan foydalanish.

Hozirgi vaqtda bilimlar hajmi tez sur'atda o'sib borishi, o'qitish metodlarini hamisha takomillashtirib turishini, yangi texnikaviy vositalarni pedagogik jarayonga joriy qilishni talab qiladi. Mashg'ulotlarda o'quv-texnika vositalarini qo'llanish katinashuvchilarni o'quv materiallarni chuqur o'zlashtirishga, mashg'ulotlar sifatini oshirishda, bilimlarini har tomonlama o'zlashtirishda muhim rol o'ynaydi. Texnika vositalari katinashuvchilarni eshitish, ko'rish organlari orqali ularni har tomonlama tarbiyalashda katta omil bo'lib hizmat qiladi. Ayniqsa, hozir kundan-kun xalq amaliy bezatuvchilik san'ati to'garaklarida texnika vositalaridan foydalanish ishlari yo'lga qo'yilmoqda. Texnikadan foydalanishning maqsadi katinashuvchilarga o'rganilayotgan tema haqidagi ma'lumotlarni qisqa vaqt ichida to'liq, aniq tushunish, o'rganish va esda saqlashini osonlashtiradi, san'atga bo'lgan qiziqishini oshiradi. Mashg'ulot vaqtida namoyish qilinayotgan foto, otkritka, reproduksiyaalar katinashuvchilarga yaxshi ko'rinmaydi. Shuning uchun ko'rsatilmoqchi bo'lgan chizma, foto, otkritka va reproduksiyaalarni ekranga katta qilib ko'rsatishda hamda mayda detallarni tushuntirishda epidiaskopdan foydalanish juda qulay. Namoyish jarayonida ustalarning ishlari bo'yicha ba'zi bir savol-javoblarda taxlilda juda ko'p keladi. To'garak o'zi tayyorlangan diapozitivlarni ham epidiaskop yoki diaproektor orqali namoyish qilishi mumkin. LETI apparati orqali diafilmlar ko'rsatishdan tashqari maxsus kinolardan fragmentlar ko'rsatiladi. Fotoapparat ko'rgazmali qurollar, diapozitivlar, slaydalar, devoriy gazetalar chiqarishida qo'l keladi. Bundan tashqari ekskursiya vaqtida me'moriy yodgorliklarini, xalq amaliy san'ati asarlaridan fotonamuna olishda muzeylarda, ko'rgazmalarda, uchrashuv, kecha, xalq ustaxonalarining ish jarayonlarini rasmga olishda va ulardan mashg'ulotda foydalanish va hokazolardan juda ko'p keladi.

To'garaklarda o'tkazilayotgan mashg'ulotlarning samaradorligini oshirishda temani to'ldirish va boyitishda **diafilmlarning** roli katta. Mashg'ulot vaqtida bir nechta diafilmlarni ko'rsatish ham mashg'ulot samaradorligiga salbiy ta'sir etishi mumkin. Lekin ba'zi diafilmlar temaga bog'liq bo'lsa 2 – 3 diafilumni namoyish

etish mumkin. Ularning ba'zi birlarini mashg'ulotdan keyin ko'rsa ham bo'ladi. To'garak rahbari temaga oid diafilmlarni mashg'ulotdan avval tanlab har bir kadrlarga savollar tuzishi, ularning mazmunini gapirib berishga tayyorgarlik ko'rishi kerak.

To'garak rahbari diafilumni namoyish qilishdan oldin 2 – 3 minut kirish so'zi tayyorlaydi, bundan diafilm kadrlarining mazmunini ochib berish uchun tayyorlaydi. Diafilm mazmunini qatnashuvchilarga tushuntirish to'garak rahbarining mahoratiga bog'liq. Chunki quruq qadrlarni ko'rsatish bilan mashg'ulotning samaradorligiga erishib bo'lmaydi. SHuning uchun qatnashuvchilarning diafilmdagi kadrlar tasvirini idrok qilishga va ular haqida fikr yurita olishga o'rgatish kerak. Namoyish qilinayotgan diafilm mazmunidan chetga chiqish, ortiqcha gapirish, ortiqcha ko'rsatish diafilm ritmini buzishga, bolalarni qiziqishini pasaytirishga olib keladi. Diafilumni to'garak rahbari mashg'ulot davomida ko'rsatishi mumkin. Albatta temaning talabiga qarab ko'rsatiladi. To'garak rahbari diafilmlarni ko'rsatgandan so'ng qatnashuvchilar bilan suhbat va savol-javoblar o'tkazadi, ekrandagi tushunilmagan joylarini to'ldirib tushuntirib beradi. Diafilm to'garak mashg'ulotlarida 10-15 minutdan oshmasligi kerak, chunki uning ta'sir kuchi kamayishi mumkin. Diafilmlardan foydalanish natijasida to'garak a'zolarining aktivligi, qiziqishi yanada oshadi. Naqqoshlik o'quvchilarning dunyoqarashini shakllantirishda biror ganchkor ustaning hayot-faoliyati yoki dasturdagi temalarni chuqur o'rganishda ma'ruza, leksiya, suhbat va ekskursiyalar muhim o'rinni egallaydi. O'quvchilarni o'z fikrini ayta olishga, nutqini rivojlantirishga yordam beradi. **Leksiya** asosan biror ganchkor usta yubleyida yoki biror tema bo'yicha olib boriladi. **Ma'ruza** tayyorlashda esa qobiliyatli o'quvchi tanlanadi (bitta temani bir kishiga yoki ikki, uch kishiga berish mumkin). Unga ko'rgazmali material tayyorlashda o'quvchilar va to'garak rahbari yordam berishi mumkin. O'quvchiga ma'ruza temasini 15-20 kun oldinroq berib qilgan ishlari har 3-4 kunda nazorat qilib boriladi. To'garak rahbari ma'ruza dasturini tuzishda temaga oid materiallarni, ya'ni adabiyotlar, rasmlar qaerlardan olinishi, qanday foydalanish kerakligi to'g'risida tavsiyalar berib boradi. Doklad 15-25 minutlik bo'lishi kerak. Dokladdan so'ng ayrim savol-

favoblar, to'ldiriladigan joylar bo'lsa to'ldiriladi, umuman 40-45 minutdan oshmasligi kerak. Epidiaskop, slayda va fotosuratlardan foydalanish mumkin.

Ma'ruzalar taxminan quyidagi temalar: O'rta Osiyo arxitekturası, qardosh xalqlar amaliy san'ati, Mahmud Usmonov ijodi va boshqalar bo'yicha bo'lishi mumkin.

To'garaklarda o'tkaziladigan **suhbatlar** o'quvchilarga faqatgina ganch o'ymakorligi san'atini o'rgata qolmasdan, ularni hayotga o'rgatishda, estetik did va dunyoqarashini shakllantirishda bilimini kengaytirishda, har bir narsaga yuzaki qaramaslikka, intizomli bo'lishga o'rgatadi. Suhbatlar mashg'ulot davomida yoki har bir yangi temani o'tishdan avval o'tkaziladi. Suhbat 10minutdan 40 minutgacha davom etishi mumkin. Suhbat vaqtini belgilashda qatnashuvchilarning bilim darajalari, yoshi hisobga olinadi. Mashg'ulot o'rtalarida olib boriladigan suhbat 10-15 minutdan oshmasligi kerak, aks holda ular charchab qolishi mumkin. Suhbatlarni, ayniqsa kichik gruppalarda tez-tez o'tkazish maqsadga muvofiqdir. Suhbat uchun ham har xil fotosuratlar, slaydlar, diafilmlar va kinofilmlardan, epidiaskopdan foydalanish mumkin. To'garak rahbari ayrim temalar bo'yicha stendlar tashkil etishi, stendda ba'zi ganchkor ustalarning ijodlari yoki biror temada o'tkaziladigan bo'lsa, fotosuratlar, chizmalar ilib qo'yilishi mumkin. Albatta suhbat davomida o'quvchilarning bilim darajalari, qobiliyatlari va yosh xususiyatlarini hisobga olib savollar beriladi. CHunonchi «Usta SHirin Murodov ijodi haqida» suhbat o'tkazmoqchi bo'lsak, quyidagicha savol-javoblar o'tkazish mumkin.

1. Usta Shirinning bu kompozitsiyasi nima deb nomlanadi?
2. Nima uchun bu kompozitsiyaning nomi "ruta ismli raftor" deb ataladi?
3. Bu kompozitsiyani ishlashda usta qanday elementlardan foydalangan?
4. Usta kompozitsiyani ishlashda qaysi yo'llardan foydalangan?
5. Sizga usta asarlarining qaysi jihatlari yoqadi?
6. Siz usta Shirinning qanday kompozitsiyalarini bilasiz?

O'quv tarbiya ishlarining eng qiziqarli va mazmunli turlaridan biri **ekskursiyadir**. Ekskursiya o'quvchilarini to'garak mashg'ulotlarida olgan bilimlarini mustaxkamlaydi, dunyoqarashini shakllantiradi va bu tassurotlar ularni

ijodiy qobiliyatini oshiradi. To'garak a'zolarini Naqqoshlik san'atiga bo'lgan havasini, qiziqishini yanada oshiradi va ganchkorlaenini asarlarini badiiy estetik hamda g'oyaviy mazmunini o'qiy olishga o'rgatadi. Ekskursiya o'quv dasturlaridagi biror temani kengroq, atroflicha o'rganish uchun uyushtiriladi.

To'garak rahbari o'quvchilarni quyidagi joylarga ekskursiyaga olib borishi mumkin:

1. Xalq amaliy san'ati muzeyiga.
2. Tasviriy san'at muzeyiga
3. Tarix muzeyiga
4. Tabiat muzeyiga
5. Naqqoshlik brigadalarining ish ob'ektiga.
6. Tasviriy san'at va xalq amaliy bezatuvchilik san'ati ko'rgazmalariga.
7. Maktablardagi ganch o'ymakorlik hamda boshqa to'garaklarga.
8. Arxtitektura yodgorliklariga.
9. Samarqand, Buxoro, Xiva, boshqa shaharlarga.

To'garak rahbarlari ekskursiyadan oldin tayyorgarlik qilish, uni qanday o'tkazish kerak va bu ekskursiya qanday tugallanishi lozimligi to'g'risidagi masalani ko'rib chiqadi.

Ekskursiyani namunali o'tishi uchun to'garak rahbari ekskursiya qilinadigan ob'ektni ko'rib o'rganib keladi. Adabiyotlar bilan tanishib chiqadi. Ekskursiya rejasini tuzadi. To'garak rahbari ekskursiya o'tkaziladigan kunni, o'quvchilarni bo'sh kunini aniqlab o'sha kuni e'lon qiladi. E'lon qilishda qaerga borish, u erda kerak bo'ladigan qalam, o'chirg'ich, ruchka, albom, daftar, ba'zi o'quvchilar fotoaparatin olishligi aytiladi. Ekskursiya paytida tartib-intizom, ham ogohlantirib qo'yiladi. To'garak a'zolariga nechta o'quvchi borishini, qanday maqsad va vazifalar ko'zlanganligi tushuntiriladi. O'quvchilarga kerakli atamalar va kerak joylarini qisqa-qisqa yozib olishligi aytib qo'yiladi. Tugarak rahbari boriladigan joydagi eksponatlarni rejali va keng mazmunli qilib ochib berish uchun ba'zi kerakli detallarni yon daftariga yozib olishi mumkin. Ekskursiya muzeyida o'tkaziladigan bo'lsa uni maxsus ekskursiya rahbarlari ham olib borishi mumkin.

O`qituvchi o`quvchilarga qanday savollar berishini oldindan tuzib olishi kerak.

1. Bu naqqosh ustaning qanday naqqosh namunasini ko`rib turibsiz?
2. Nima uchun bu namayon shunday deb atalgan?
3. Asarda qanday elementlardan foydalangan?
4. Naqqoshlik asari kompozitsion jihatdan qanday tuzilgan?
5. Shu usta asarlarini qaerlarda ko`rgansiz yoki bilasiz?
6. Naqqosh bu ishda pardozning qanday turidan foydalangan?
7. Siz bu naqqoshning ustozlari yoki shogirdlaridan kimlarni bilasiz?

8. Naqqoshlikning ish uslubi boshqa ustalarning ishidan nimasi bilan farq qiladi va hokazolar.

To`garak rahbari o`quvchilar bilan muzeyga borganda ularga tartib-intizomni saqlashlari va ba`zi qoidalarni aytib ogohlantirib qo`yishi kerak. O`quvchilarga bir chekkadan naqqoshlik ishlarini, ustalarning ish uslubi, kompozitsion tuzilishi, agar namoyon bo`lsa namoyon haqida, ularning nomlari va turlari, sharafo, gul, munabbatlar haqida darsda aytilgan, tushuntirilgan so`zlarni amalda ko`rsatib tushuntirishi kerak.

O`quvchilar avval yaxshilab tomosha qilib, so`ngra ma`qul bo`lgan ishlardan namunalar ko`chiradilar. Ba`zilari fotosuratlar olishadi. Bu ishlarni bajarishda, namuna tanlashda to`garak rahbari har bir o`quvchiga alohida e`tibor bilan, nima sababdan aynan shu namuna tanlayotgani haqida so`rab olinsa juda yaxshi bo`lardi. Bulardan tashqari ba`zi tuzilgan savollarni o`quvchilar bilan individual savol-javob qilishi mumkin.

To`garakda ekskursiya rahbari yakunlovchi suhbat va ba`zi bir savol-javoblar o`tkazadi. Shu taassurotlar asosida har bir o`quvchidan nima uchun shu kompozitsiya tayyorlanganligi, unda nimalar aks ettirilishi haqida so`rab aniqlanadi. Ekskursiya tashurotidan olingan fotosuratlar maxsus fotoalbomlarga yoki maxsus papkalarga solib qo`yiladi. Ba`zi suratlar asosida plakatlar hamda foto yoki devoriy gazeta chiqarish mumkin.

O`quvchilar qo`shni to`garakka ekskursiya qilishda to`garak a`zolarining ishlaridagi yutuq va kamchiliklar bilan tanishadilar. Ularda qilinayotgan ishlar

bilan tanishish hamda ishlarni ko'rgazmaga qo'yilgan o'quvchilar bilan savol-javoblar o'tkazadilar. Ba'zi o'yma ishlardan fotonamunalar oladilar. SHular asosida ekskursiyadan keyin to'garak o'quvchilarida qanday taassurotlar qoldirilganligi ayniqsa qaysi ishlar yoqqanligi to'g'risida savol-javoblar o'tkaziladi.

Naqqoshlik ish ob'ekitiga ekskursiya. Bunda o'quvchilar naqqoshlik ob'ektlariga borib ganchkor usta va uning shogirdlari bilan yuzma-yuz tanishadilar. Ular bilan suhbat qurib, savol-javoblar orqali ma'lumotlar oladilar. O'quvchilar hozir naqqoshlik ning binolarda keng qo'llanilayotgani, ularni qanday bajarilayotganligini o'z ko'zlari bilan ko'radilar. Ustalarning xomaki nusxalarini suvoq turlari va suvash usullarini amalda ko'radilar. Naqqoshlik ishlarining qanday bosqichlarda bajarish jarayoni bilan yaqindan tanishadilar. Naqqoshlikda qo'llaniladigan ba'zi elementlarni albomlariga chizib oladilar. Ular ekskursiyada olgan taassurotlari asosida uylarida mustaqil kompozitsiyalar ishlashlari mumkin. Bu esa ularni yanada ijodiy izlanishlariga, badiiy ijodiyotini yanada o'stirishga yordam beradi. Ular to'garakda olgan bilimlarini ekskursiyada yanada to'ldiradilar, mustahkamlaydilar.

Lektsiyalar asosan katta gruppaga a'zolariga mo'ljallangan, lekin har xil ko'rgazmali qurollar orqali kichik va o'rta gruppaga a'zolariga ham o'tsa bo'ladi. Lektsiya o'qishda, albatta o'quvchilarning yosh xususiyatlari, bilim darajalari hisobga olingan holda auditoriyada o'tilishi maqsadga muvofiqdir. Lektsiyalar 45 minutdan oshmasligi kerak. Lektsiyani to'garak rahbari yoki san'atshunoslar, ganchkor ustalar, olimlar, haykaltaroshlar, metodistlar, rassomlar o'tkazishi mumkin. To'garak rahbari pionerlar uyi, saroyi yoki maktab ma'muriyati bilan birgalikda lektsiya o'qiydigan kishi bilan maslahatlashib biror kunni belgilaydi. Shundan so'ng to'garak rahbari qaerda, qachon va kim olib borishi to'g'risida e'lon yozib qo'yishi yoki og'zaki ravishda to'garak a'zolariga e'lon qilishi mumkin. Lektsiyani o'tkazishdan oldin to'garak a'zosi xonani tartibga solishi, foydalaniladigan texnika vositalarini tayyorlab qo'yishi lozim. Lektsiyani to'garak rahbarining o'zi ham o'tkazishi mumkin, lekin bu temaga u puxta tayyorlanishi, har xil ko'rgazmali qurollardan va texnika vositalaridan o'rinli foydalanishi va

lektsiya rejasini tuzishi kerak. Slaydalar, diafilm va kinofilmlar ko'rsatilsa lektsiya yanada qiziqarliroq o'tadi. Shuning uchun to'garak rahbari atroflicha tayyorlanishi maqsadga muvofiqdir. Lektsiyalarni muzeylarda, madaniyat uylarida, ko'rgazma zallarida, arxitektura minoralari yonida va boshqa joylarda o'tkazish mumkin. Muzeylarda lektsiyani lektor o'qisa juda yaxshi bo'ladi. Chunki ular qo'yilgan eksponatlarni juda yaxshi chuqur o'rgangan bo'ladilar.

Naqqoshlik to'garagida quyidagi temalar bo'yicha lektsiyalar o'tkazish mumkin.

1. San'atning hayotimizdagi roli.
2. San'at turlari.
3. Xalq amaliy bezatuvchilik san'ati.
4. Xalq amaliy ustalari.
5. Naqqoshlik san'ati
6. Naqqoshlik san'ati ustalari.
7. Usta Shirin Murodov ijodi haqida.
8. Toshpo'lat Arslonqulov ijodi.
9. M.Usmonov ijodi.
10. Geometrik naqsh va ularning turlari
11. Yog'och o'ymakor usta Ortiq Fayzullaev ijodi.
12. Naqqoshlikda kompozitsiya
13. Buxoro naqqoshlik san'ati va hokazolar.

I.6. Naqqoshlik mashg'ulotlari uchun mo'ljallangan ko'rgazmali qurollar mavzulari.

Tasviriy san'at to'garaklari uchun nashriyotlar juda kam plakatlar chiqaradi. Shuning uchun xalq amaliy san'atining ba'zi turlari bo'yicha hozirgacha hech qanday ko'rgazmali qurollar chiqarilmagan. Chunonchi, naqqoshlik to'garagi uchun hech qanday ko'rgazmali qurollar yo'qligi tufayli bu ishlar to'garak rahbarining zimmasiga tushadi. Shuning uchun biz to'garak rahbarlari uchun qanday plakatlar tayyorlash va metodlari haqida to'xtalib o'tmoqchimiz. Plakatlar tayyorlashda o'qituvchiga eng yaxshi yordamchi o'quvchilardir. O'quvchilar bilan tayyorlangan plakatlar tez va yaxshi chiqishi mumkin. Bu erda o'qituvchining tashkilotchiligi muhim rol o'ynaydi. Plakatlarni o'quvchilarning o'zlari tayyorlaydi natijada ular quyidagi yutuqlarga ega bo'ladilar.

1. Plakatlar tayyorlash jarayonida ba'zi bir materiallar chuqurroq o'rganilishi mumkin.
2. Ular chizish, yozish, bezatishni o'rganib boradilar.
3. O'z o'rtoqlari tayyorlagan buyumlarni ehtiyotqilishga va saqlashga o'rganadilar.

60X60 sm o'lchamda ko'rgazma qurollarini tayyorlash yoki 24-format eng yaxshi o'lcham hisoblanadi. Iloji boricha 3-4 ta bosqichdagi plakatlar ishlash maqsadga muvofiqdir. Ko'rgazma qurollarini tayyorlashda o'qituvchi quyidagi tomonlariga e'tibor berishi kerak:

Ko'rgazmali qurollar imlo tomondan xatosiz kamchiliksiz yozilishi, ko'rgazmali qurollar programmasiga bog'liq bo'lishi, ular haqiqiy ko'rinishga ega bo'lishi, o'quvchilarni yosh xususiyatiga mos holatda tayyorlanishi, ko'rgazmali qurollar aniq va yaxshi ko'rinishi, estetik va ginetik qonuniyatlarga javob berishi lozim.

To'garak rahbari o'quvchilar bilan plakatlar tayyorlashdan oldin avval ba'zi bir materiallar, ya'ni fotolar, illyutratsiyalar, adabiyotlar, qog'ozlar, bo'yoqlar va boshqa narsalarni to'plab olishi lozim. O'quvchilarning biror bo'sh vaqtini tanlab, ular bilan birgalikda plakatlar tayyorlanadi. Plakatlar tayyorlashda ularning

hammasi qatnashishi shart emas. Ular bilan avvalombor temalarga oid bir nechta nusxalar tuzilib keyin ish boshlanadi.

Plakatlar qiziqarli real chiqishi, so`nggi partadagi o`quvchilarga ko`rinadigan qilib tayyorlanishi maqsadga muvofiqdir. Kitoblardan fotolarni kattalashtirib ko`rgazma plakatlar tayyorlash mumkin.

Ko`rgazmali qurollarni quyidagi bosqichda bajarish kerak. Ko`rgazma qurolining temasini aniqlash, unga kerak bo`ladigan materiallarni to`plash, uning kichik masshtabdagi nusxasini bajarish va uni qog`oz yuzasiga kompozitsion joylashtirish, qog`ozga kerakli tasvirni chizish va bo`yash, so`ngra ikki chetiga tushuntirish xati yoki chizmasini berish, yuqori va past qismiga reyka va ilgak o`rnatish, ko`rgazma qurolining o`ng tomoniga tartib nomerini yozib yopishtirish.

Plakatlardan foydalanish qulay bo`lishi uchun ularni tartib raqami bo`yicha stellajlarga ilib qo`yish kerak har bir Naqqoshlik to`garagida quyidagi plakatlar bo`lishi maqsadga muvofiqdir.

1. Naqqoshlik turlari.
2. Tasviriy san`at turlari.
3. Naqqoshlikka oid adabiyotlar ro`yxati.
4. Naqqoshlikka oid adabiyot va al`bomlarning foto nushalaridan tayyorlangan plakatlar.
5. Naqqoshlik tarixiga oid plakatlar.
6. mashhur naqqosh ustalarning fotosuratlaridan tayyorlangan plakatlar.
7. Xalq amaliy san`ati turlari.
8. San`at turlar.
9. Sun`iy va tabiiy ganchdan ishlangan o`yma ishlardan fotonamunalar.
10. Chuqur o`yma ishlardan fotonamunalar va chizmalar.
11. Yirik o`yma ishlaridan fotonamunalar bajarish va chizmalar.
12. Chuqur o`yma va uning o`ziga xos xususiyatlari ko`rsatilgan plakatlar
13. Tekis o`ymalarga oid plakatlar.
14. Oddiy o`ymalarga oid plakatlar.
15. Oddiy va murakkab qirmalarga oid plakatlar.
16. Ikki rangli zaminkor o`ymalarga oid plakatlar.

17. Oyna zaminli o`ymalarga oid plakatlari
18. Panjara va uning turlari ko`rsatiladigan plakatlar.
19. Hajmli o`ymalarga oid plakatlar.
20. Stalaktitlarga oid plakatlar.
21. Naqqoshlikda ishlatiladigan asboblarning turlari ko`rsatilgan plakatlar.
22. Naqqoshlikda ishlatiladigan asboblarni charxlash qoidalari ko`rsatilgan plakatlar.
23. Mashhur naqqosh ustalarining ishlaridan fotonamunalar.
24. Naqqoshlik to`garagida sanitariya qoidalari ko`rsatilgan plakatlar.
25. Avvalgi ustalarning asboblari ko`rsatilgan plakatlar.
26. Asbob-uskunalarini saqlash qoidalari ko`rsatilgan plakatlar.
27. Naqqoshlikda ishlatiladigan asboblardan foydalanish qoidalari ko`rsatiladigan plakatlar.
28. Turli millat naqshlari tasvirlangan plakatlar.
29. Turli jumhuriyatlarga oid naqshlar, foto namunalar.
30. Yog`och o`ymakorlikka moslab chizilgan naqsh namunalaridan tayyorlangan plakatlar.
31. Tosh o`ymakorlikka oid naqsh namunalari.
32. O`simliksimon naqshlarga oid plakatlar.
33. Geometrik naqshlarga oid plakatlar.
34. Simvolik va boshqa naqshlarga oid plakatlar.
35. Naqsh elementlari tasvirlangan plaqatlar.
36. O`simliksimon naqsh elementlari tasvirlangan plaqatlar.
37. Geometrik naqsh elementlari ko`rsatilgan plakatlar.
38. Naqsh elementlarini chizish qoidalari ko`rsatilgan plakatlar.
39. Stilizatsiyaga oid bir necha plakatlar.
40. Ritmga oid plakatlar.
41. Simmetriyaga oid plakatlar.
42. Assimetriyaga oid plakatlar.
43. Eng oddiy naqsh namunalari tartibi bilan ko`rsatilgan plakatlar
44. Bargli zanjira (1-gul) bosqichlari bilan ishlangan plakatlar.

45. Yak raftor islimi (2-gul) bosqichlari bilan ishlangan plakatlar
46. Bargli raftor islimi (3-gul) naqsh namunasini bajarish bosqichlari ko`rsatilgan plakatlar.
47. Bargli islimi (4-gul) naqsh namunasini bajarish bosqichlari ko`rsatilgan plakatlar
48. Aylanma islimi (5-gul) naqsh namunasini bajarish bosqichlari ko`rsatilgan plakatlar.
49. Islimi bofta (6-gul) naqsh namunasini bajarish bosqichlari ko`rsatilgan plakatlar.
50. Qo`sh mehrobli islimi (7-gul) naqsh namunasini bajarish bochqichlari ko`rsatilgan plakatlar.
51. Gulli raftor (8-gul) naqsh namunasini bajarish bosqichlari ko`rsatilgan plakatlar.
52. Islimi shukufta (10-gul) naqsh namunasini bajarish bochqichlari ko`rsatilgan plakatlar.
53. Naqqoshlik materiallari va ularni saqlash qoidalari ko`rsatilgan plakatlar.
54. Xovonda tayyorlash qoidalari ko`rsatilgan plakatlar.
55. Ganch taxtachalarni tayyorlash qoidalari ko`rsatilgan plakatlar.
56. Axta (ulgi) tayyorlash va undan foydalanish yo`llari ko`rsatilgan plakatlar.
57. Naqqoshlikning bosqichlari va qoidalari ko`rsatilgan plakatlar.
58. Zanjira turlari ko`rsatilgan plakatlar
59. Zanjira kompozitsiyasini chizish bosqichlari ko`rsatilgan plakatlar.
60. Zanjira kompozitsiyasini o`yish bosqichlari ko`rsatilgan plakatlar
61. O`quvchilarning zanjira o`yma ishlaridan namunalar.
62. O`quvchilarning zanjira kompozitsiyasiga oid xomaki nusxalaridan namunalar.
63. Pardoiz turlari ko`rsatilgan plakat va modellar.
64. Choka pardoizga oid plakatlar.
65. Pax pardoizga oid plakatlar.
66. Tabaqa pardoizga oid plakatlar.
67. Lo`la pardoizga oid plakatlar

68. Har bir pardozga oid ganch o`ymakorlik ishlaridan fotonamunalar.
69. Sodda naqsh kompozitsiyalarini bajarish bosqichlari ko`rsatilgan plakatlar.
70. Pax pardozni amalda qo`llash ko`rsatilgan plakatlar.
71. O`quvchilarning pax pardoz ishlaridan namunalar.
72. Choka pardozni amalda qo`llash ko`rsatilgan plakatlar.
73. O`quvchilarning choka pardozni qo`llagan ishlaridan namunalar.
74. Tabaqa pardozni amalda qo`llash bosqichlari ko`rsatilgan plakatlar.
75. O`quvchilarning tabaqa pardozga oid ishlaridan namunalar.
76. Lo`la pardozini qo`llash ko`rsatilgan plakatlar.
77. O`quvchilarning lo`la pardozini qo`llagan ishlaridan namunalar.
78. Samarqand naqqosh ustalarining ishlaridan fotonamunalar.
79. Buxoro naqqoshligining ishlaridan fotonamunalar.
80. Xiva naqqosh ustalarining ishlaridan fotonamunalar.
81. Farg`ona vodiysi naqqosh ustalarining ishlaridan fotonamunaviy plakatlar.
82. Toshkent naqqosh ustalarining ishlaridan fotonamunalar.
83. Naqqosh ustalarining ishlaridan namunalar va ularning tahlili ko`rsatilgan plakatlar.
84. O`quvchilarning tahlil qilingan ishlaridan plakatlar.
85. Hozirgi mashhur naqqosh ustalarining ishlaridan tayyorlangan fotoplakatlar.
86. Siluet haqidagi plakatlar.
87. Usta Shirin Murodov, Toshpo`lat Arslonqulov, Shamsiddin G`ofurov, Mahmud Usmonov va shu singari ustalarning ishlari ko`rsatilgan fotonamunalardan tayyorlangan bir qancha plakatlar.
88. Mustaqil naqsh kompozitsiyasiga oid bir qancha plakatlar.
89. Katta gruppaga o`quvchilarning ruta kompozitsiyasiga oid plakatlar.
90. Munabbat (to`rt tomonga takrorlanadigan naqsh kompozitsiyasi bosqichlari ko`rsatilgan plakatlar.)
91. Doira shaklidagi naqsh kompozitsiyasi bosqichlari ko`rsatilgan plakatlar.
92. Naqqosh ustalarining ruta kompozitsiyasidan fotonamunalar.
93. Munabbat naqsh kompozitsiyasiga oid ganch o`ymakor ustalarining ishlaridan fotonamunalar.

94. Doira shaklidagi naqsh kompozitsiyasiga oid ganch o`ymakor ustalarining ishlaridan fotonamunalar.
95. Buxoro, Xiva, Toshkent, Samarqand, Farg`ona vodiysi naqqosh ustalarining doira, munabbat va ruta ishlaridan fotonamunaviy plakatlar.
96. Namoyon turlari.
97. Mashhur naqqosh ustalarining namoyonlaridan fotonamunalar.
98. O`quvchilarning namoyon kompozitsiya ishlaridan namunalar.
99. O`quvchilarning o`yma ishlaridan namunalar.
100. Sodda va murakkab namoyonlarga oid plakatlar.
101. Namoyon kompozitsiyasini bajarish bosqichlari ko`rsatilgan plakatlar.
102. Qardosh xalqlarning har xil joylarga ishlangan ishlaridan fotonamunalar.
103. Xalq amaliy san`ati muzeyidagi ishlardan fotonamunalar
104. Sharafa kompozitsiyasini chizish qoidalari va bosqichlari ko`rsatilgan plakatlar.
105. Naqqosh ustalarni sharafa ishlaridan fotonamunalar.
106. Sharafani o`yish qoidalari ko`rsatilgan plakatlar.
107. Davra kompozitsiyasiga oid plakatlar.
108. O`quvchilarni sharafa ishlaridan namunalar.
108. O`quvchilarni davra kompozitsiya ishlaridan tayyorlangan fotonamunalar.
109. O`quvchilarning davra kompozitsiyasiga oid va chizma ishlaridan namunalar.
110. Mashhur ganch o`ymakor ustalarining davra kompozitsiyasiga oid ishlaridan fotonamunalar.
111. Qardosh jumhuriyat xalq amaliy san`ati turlaridan fotonamunalar.
112. Qardosh xalqlarning naqqoshlik va boshqa amaliy san`at turlari to`g`risida kitoblar ro`yxati yoritilgan plakat.
113. Qardosh xalqlarning yog`och o`yma ishlarini bosqichlari bilan bajarilgan fotonamunalar
114. Murakkab kompozitsiyaga oid plakatlar
115. Murakkab kompozitsiya ishlaridan fotonamunalar
116. Murakkab kompozitsiyani chizish bosqichlari ko`rsatilgan plakatlar.

117. O`quvchilarning murakkab kompozitsiyaga oid ishlaridan namunalar.
118. Qirma pardoz haqida plakatlar.
119. Sodda qirma pardoz kompozitsiyalariga oid plakatlar.
120. O`quvchilarning sodda qirma pardoz kompozitsiyalaridan namunalar.
121. Murakkab qirma pardoz kompozitsiyalariga oid plakatlar.
122. Sodda va murakkab qirma pardoz kompozitsiyalarini, bajarish bosqichlari ko`rsatilgan plakatlar.
123. Naqqosh ustalarining qirma pardoz kompozitsiyalaridan fotonamunalar.
124. Rangli qorishma tayyorlash va uni o`yiq erlarga kiritish qoidalari ko`rsatilgan plakatlar.
125. O`quvchilarning qirma kompozitsiyalaridan namunalar.
126. Ko`p rangli qirma kompozitsiyaga oid plakatlar.
127. Zaminkor naqshlarga oid plakatlar.
128. Ganchkor ustalar oyna zaminli kompozitsiyalaridan fotonamunalar.
129. Zamonaviy Naqqoshlik naqsh elementlariga oid plakatlar.
130. Ganchkor ustalarning zamonaviy Naqqoshlik naqsh elementlari qo`llanilgan ishlaridan fotonusxalar.
131. Girih elementlari asosida kompozitsiya ishlash qoidalari ko`rsatilgan plakatlar.
132. Girih naqsh elementlari tasvirlangan plakatlar.
133. Girih va islmiy naqsh elementlaridan qo`shib naqsh kompozitsiyalari tuzish bosqichlari ko`rsatilgan plakatlar.
134. Geometrik naqsh elementlarini tabiatdan stillashtirib olinishiga oid plakatlar.
135. Girih turlari tasvirlangan plakatlar.
136. Ganch o`ymakor ustalarining girih kompozitsiyalaridan namunalar.
137. O`quvchilarning girih kompozitsiyalaridan namunalar.
138. Qadimiy panjaralardan fotonamunalar.
139. Panjara kompozitsiyalaridan chizma namunalar.
140. Panjara turlaridan namunalar
141. Hozirgi ustalarning ishlaridan fotonamunalar.

142. Panjara ishlashning o`ziga xos qoidalari ko`rsatilgan plakatlar.
143. O`quvchilarning panjara ishlaridan namunalar.
144. Kosamon tokchalardan fotonamunalar.
145. Ganch o`ymakor ustalarning o`yma ustunlaridan fotonamunalar
146. O`ymakor ustunlar uchun bir qancha naqsh kompozitsiyalari ko`rsatilgan plakatlar.
147. Quyma usuliga oid plakatlar.
148. Qolip olish va qolipdagi nusxa olishga oid plakatlar
149. Qolipdan olingan nusxalarga pardozi berish qoidalari ko`rsatilgan plakatlar.
150. Qolipdan chiqqan o`ymani kerakli joylarga o`rnatish qoidalari ko`rsatilgan plakatlar.
151. O`quvchilarning qolip asosida olgan nushalaridan fotonamunalar.
152. Naqqosh ustalarining quyma usulida olingan ishlaridan fotonamunalar.
153. Qandil turlari ko`rsatilgan plakatlar.
154. Qandilga moslab chizilgan naqsh kompozitsiyalaridan namunalar.
155. Ganch o`ymakor ustalarining qandil ishlaridan fotonamunalar.
156. O`quvchilarning qandil ishlaridan fotonamunalar.
157. O`quvchilarning qandilga moslab chizgan kompozitsiyalaridan namunalar.
158. Qandilni bajarishning bosqichlari ko`rsatilgan plakatlar.
159. Ganch o`ymakorlik san`atiga kirib kelgan zamonaviy elementlar haqida plakatlar.
160. Chizma pardozi o`ldirishga oid plakatlar.
161. Chizma pardozi mo`ljallab chizilgan naqsh kompozitsiyalaridan namunalar.
162. Jimjimador, chiroyli guldon va uning turlariga oid plakatlar.
163. Guldonga moslab chizilgan naqsh kompozitsiyalaridan namunalar.
164. O`quvchilarning chizgan chiroyli guldonlaridan namunalar.
165. Naqqoshlikda ishlatiladigan atamalarning ma`nosini ko`rsatilgan plakatlar.
166. Xona devorlarini ma`lum bo`laklarga bo`lish qoidalari ko`rsatilgan plakatlar.
167. Mashhur naqqosh ustalarining bichiq bichishi ko`rsatilgan plakatlar.

168. Qadimiy ustalarning bichiq bichish qoidalari ko`rsatilgan fotonamunalar.
169. Aylanalarni teng bo`laklarga bo`lish qoidalari ko`rsatilgan plakatlar.
170. Suvoq turlari ko`rsatilgan plakatlar.
171. G`isht devorini suvash ko`rsatilgan plakatlar.
172. Beton devorlarga suvoq baj arish qoidalari ko`rsatilgan plakatlar.
173. Loy suvoqli devorlarga suvoq berish yo`llari ko`rsatilgan plakatlar.
174. Qum suvoq devorlarni suvash yo`llari ko`rsatilgan plakatlar.
175. Yog`och devorli yuzalarni suvash yo`llari ko`rsatilgan plakatlar
176. O`quvchilarning bajargan suvoq ishlaridan fotonamunalar
177. Hozirgi naqqosh ustalarning fotosuratlari.
178. Hozirgi naqqosh ustalarning zamonaviy binolarni bezagan ishlaridan foto
namunalar.
179. Chakich zaminli naqshlardan fotonamunalar.

II BOB. Yog`ochdan yasalgan buyumlarga naqsh solish texnologiyasi o`rganishning nazariy asoslari.

II.1. Yog`ochdan yasalgan buyumlarga qo`llanilgan naqsh turlari, ularning tuzilishi va nomlanishi

Xalq amaliy bezak san`ati buyumlari qatori yog`ochdan yasalgan buyumlarga naqshin badiiy bezak ishlash san`ati ham alohida o`rin egallaydi. Yog`ochdan yasalgan buyumlarni ranglr orqali naqshlash-avloddan-avlodga o`tib kelayotgan noyob san`at turi hisoblanadi. U asrlar o`tishi bilan tobora sayqal topib, mukammallashib boradi, faqat uning qo`llanilish o`rni, vazifalari qisman o`zgarishi, bezak unsurlari (elementlari) talqinida turli-tuman yangiliklar sodir bo`lishi mumkin. Yog`ochdan yasalgan buyumlarni bezatilishining asosini naqsh ya`ni ma`lum tartib va izchillikda joylashtirilib tuzilgan yaxlit bezaklar tashkil qiladi. Naqshlar asosan, o`simlik dunyosi: novda, barg, gullar, mevalar, geometrik shakllar: uchburchak, to`rtburchak, oltiburchak, aylana kabilar va hayvonlar tasvirini naqqoshlar tomonidan badiiylashtirib hosil qilingan bezakdir.

Yog`ochdan yasalgan buyumlarga ham o`zining mazmuniga, ko`rinishiga va tuzilishiga ko`ra-o`simliksimon (islmiy), geometrik, gulli girix va ramziy turlarga bo`lib qo`llanilib kelinadi.

**O`simliksimon naqshlar-** tabiatdagi o`simlik dunyosidagi daraxt, gullarning bandlari, butalari, barglari, kurtak va g`uncha kabi qismlarini naqqosh tomonidan o`zlashtirilib, badiiylashtirilib olingan shakllarini ma`lum qonuniyatlar asosida ritmik takrorlanishidan hosil qilinadi.

Geometrik naqshlar- yog`ochdan yasaladigan buyumlarning tuzilishiga qarab keng qo`llanilib kelinadi. U girix turkumidagi naqshlarni o`z ichiga oladi. Girix-chigal, tugun ma`nosini anglatib, murakkab handasiy naqsh turi hisoblanadi. Girixlar geometrik shakllar: uchburchak, to`rtburchak, oltiburchak, aylana va yoy hamda ko`pburchak kabilarni o`z tarkibiga olib, tuzilishi jihatidan to`g`ri chiziq, egri chiziq hamda aralash chiziqlardan tashkil topgan guruxlarga bo`linadi. Girixlar ham uzluksiz rapportlardan tashkil topgan bo`lib, har bir rapport o`z tuzilishiga ega bo`ladi.

Gulli girix-girix orasiga islamiy naqsh bilan to'ldirilgan murakkab naqsh turi.

Ramziy naqsh- shartli bezak; biror g'oya, tushuncha, hodisa va shakllarni ifodalaydi, eslatadi. Bu naqsh davlat ramzlari, yulduz, bug'doy va boshqa biror shartli shakllarni tasvirlaydi.

Qadimdan naqqoshlik san'atida yog'ochdan yasalgan buyumlarga qadama naqsh ishlash, naqsh qoplash san'ati chinakam gullab yashnaganligini ko'rsatuvchi ajoyib misollar bor. Xalq ustalari bu sohada bir talay ishlar qilishgan va zo'r san'at yaratishib kelishgan. Ana shunday benihoya ulkan san'at asarlaridagi naqshlar qanday mazmunga ega, qaerlarda qo'llaniladi va ularning chizilish texnologiyasi, o'ziga xos qonuniyatlari nimalardan iborat?

Yuqorida tanishib chiqqan fikrlarni davomi sifatida endi yog'ochdan yasalgan buyumlar qo'llaniladigan naqsh turlarining mazmuni, nomlanishi bilan tanishib chiqamiz.

Naqqoshlar tomonidan yaratilgan naqsh kompozitsiyalardagi har bir tasvirni sinchiklab ko'zdan kechirganimizda, uning zamirida ramziy ma'nolar yashiringanligi yaqqol ko'rinadi. Ular oddiy yoki g'oyat murakkab naqsh namunalarida ham eng yaxshi ezgu tilaklarni aks ettiradilar. Xususan, naqshlardagi unsurlarda va ularda qo'llaniladigan ranglarda o'zlariga xos ma'nolar mujassamlashgan. Masalan, gulsafsar-osoyishtalik va umr uzoqlik timsoli, to'lqinsimon gul poyasi boylik va farovonlik timsoli, novda va yaproqlar esa to'kinchilik hamda tabiatning bahor chog'ida uyg'onishini anglatadi. Ushbu ma'no va mazmunlar mujassamlashtirilib bunyod etilgan naqsh kompozitsiyalar naqqoshlarning ona tabiatga chuqur muhabbatlarini ifoda etib, ularning jo'shqin hayot bilan doim hamnafas ekanligini bildiradi. Shuningdek, naqshlar bilan bezash xalq tasavvurida tilsim, sehr-jodu, aqidalar, urf-odatlar va pand-nasihatlar bilan ham qorishib ketganligini ko'ramiz.

Har bir naqshning o'z nomi va mazmuni bo'ladi. Shunday ekan naqshlar naqshlanadigan buyumning shakli hamda qanday maqsadda ishlatilishiga qarab tanlanaladi.

Masalan: turunj, islamiy, madohil, hoshiya, yaq raftor, lo'la hoshiya, islamiy guldona, hashti tufsar ruta, anorgul, morpech, islamiy guldona, islamiy madohil

lamti, tufsor, sarkig'on tufkori holat, xonasi bo`rtma, xashti davra, chorsar, davri sitora, shomdona yolg'ich, zanjira, yakka zanjira, ganch islamiy, islamiy parroq, oftoba, erkin islamiy, bodom, islamiy, gulli aylana islamiy, bargil islamiy, bargli raftor, mexrob, islamiy, patlis, gulli islamiy, 5-rahli girih, 5 – 10 rahli girih, shoxbarg, islamiy qo`sh bargli islamiy lunabbatli girih, munabbati gul va boshqalar kiradi.

Morpech – (tojikcha mor – ilon, pech o`ralgan) ilon izi shaklidan iborat bo`lgan islamiy hoshiya naqsh. Marpech ganchkorlikda takcha, namoyon izora chetlariga hamda naqqoshlikda esa eshik, namoyon izora stol, stul va boshqa narsalarning chetiga ishlanadi.

Yog`ochdan yasalgan buyumlarga qo`llaniladigan naqshlardan biri ruta naqsh kompozitsiyasidir. Ruta – (ruscha – bordyur) ikki tamoniga ulanuvchi naqsh taqsimi, hoshiya naqsh. Chizilayotgan naqsh nusxasining xarakteriga qarab ketmaket, to`ntarma usullarda unalishi mumkin. Naqqosh-ruta naqsh koipozitsiyasini chizayotganda to`ntarib takrorlaydi va axta yordamida aylantirib to`liq kompozitsichsini hosil qiladi. Ruta kompozitsiyasida bir yoki ikki ba`zan uch chiqish nuqtasi o`rtada bo`ladi (bo`sh joylarni to`ldirishda hizmat qiladi). Ketmaket ulanuvchi rutalar bir ikki uch yo`naluvli bo`lishi mumkin.

Namoyon - forsha so`z bo`lib kurinishi: manzara demakdir. Ruscha panno. Namoyon eng mukamallangan etuk naqsh kompozitsiyasi. Namoyon vaqelikning umumlashgan tasviriy obrazini o`ziga aks etadi. Namoyon murakkab naqsh kompozitsiya turiga kirib uning o`simliksimon geometrik, gulli girih, ramziy va boshqa turlari mavjud.

Har bir naqqoshlik maktabida namoyon naqsh kompozitsiyalari turlicha shaklda va o`ziga xos uslubda ishlanadi. O`zbek naqqoshlari manzarani aks etirishga ahamiyat berdilar, asosiy e`tiborni dinomikaga qaratadilar, gul, barg elementlar ko`proq ko`zga tashlanadi.

Umuman, aytganda namoyon naqsh kompozitsiyalari Buxoro, Samarqand va Toshkent shaharlari zamonaviy binolarida keng qo`laniladi. U ko`proq devorning yuza qismiga ulanadi, chetlariga bo`rtma naqshlar o`yiladi.

Azaldan yog`ochdan yasalgan buyumlarga ishlanadigan naqsh turlaridan yana

biri munabbat naqsh kompozitsiyalaridir. Munabbat-arabcha soʻzdan olingan boʻlib oʻstirmoq degan maʼnoni anglatadi. Asosi toʻgʻri toʻrtburchakdan tashkil topib toʻrt tomonga takrorlanadigan naqsh taqsimi. Katta yuzalarni bezashda munabbat naqsh kompozitsiyalaridan keng foydalaniladi.

Munabbat naqsh kompozitsiyalari Oʻrta Osiyo naqsh kompozitsiyalarida koʻp qoʻllaniladi. Naqqosh munabbat naqsh kompozitsiyalarini chizayotganda uning toʻrtidan bir qismini olib, bir boʻlakka naqsh kompozitsiyani chizib, keyin esa axta (ulgi) yordamida toʻrt boʻlakka tushirib chiqilib toʻliq munabbat naqsh kompozitsiyalari hosil qilinadi. Munabbat naqsh kompozitsiyalarining oʻsimliksimon, geometrik, ramziy va boshqa turlari bor. Bulardan munabbati mehrob munabbati bofta, munabbati islamiy, munabbati girix va boshqalarni sanab oʻtishimiz mumkin.

Yogʻochdan yasalgan buyumlarning bezatilishida turunj naqsh kompozitsiyalari ham alohida oʻrin egallaydi. Turunj – arabcha limon degan maʼnoni bildiradi. Ruscha medalion. Turunj naqsh kompozitsiyalarining koʻrinishi aval shaklida boʻlgani uchun uni shu nom bilan yuritiladi. Turunj naqsh kompozitsiyasi xech qanday naqshga ulanmay, muallaq turadigan naqsh kompozitsiyasi boʻlib, uning shakli asrlar davomida rivojlanib boyigan.

Hozir uning doira 5 – 10 rahmi yulduz: aval, romb, elips shakllari mavjud. Ana shu tanishib chiqqan barcha naqsh kompozitsiyalarini shu bino ichki qismini bezatishidan keng qoʻllaniladi.

II.2. Yog`ochdan yasalgan buyumlarga moslab naqsh kompozitsiyalarini tuzish bosqichlari va qonuniyatlari

Yuqoridagi fikrlarni davomi sifatida endi yog`ochdan yasalgan buyumlarga qo`llaniladigan naqsh turlarini tuzish bosqichlari va qonuniyatlari kabi ma`lumotlarni ko`rsatib o`tish ma`suliyati turadi.

Yog`ochdan yasalgan buyumlarga moslab ana shunday naqshlarni ishlashdan oldin, ularning ramziy ma`nosi va mazmunini anglab etgandan keyingina tabiatdan olingan ma`lum qonuniyatlar asosida naqsh kompozitsiyasini tuzish, ya`ni chizish geometriyasini nazariy, hamda amaliy puxta o`zlashtirilishi zarur.

Har qanday yog`ochdan yasalgan buyumlarni bezashda uning, tuzilishi chuqur o`rganib, keyin unga mos naqsh turi va naqsh kompozitsiyasini tanlash, qo`llash, o`z – o`zidan muhim ahamiyatga ega. Kichik xajmdagi kursichalarga sodda naqsh kompozitsiyalari turlaridan, katta xajmdagi kursichalarga esa murakkab yirikroq naqsh kompozitsiyalari qo`llaniladi.

O`zbek naqqoshllari asosan yog`ochdan yasalgan buyumlarni bezashda, juda aniq qunt bilan ishlashga harakat qilganlar. Nozik o`simliksimon geometrik naqshdagi o`zaro singishib ketgan novdalar, shohlar va hoshamatli tasvirlangan gullarning ritmik harakati, - o`zbek ustalarining ishlaridagi islmiy va girih naqshlarning klassik motivlari buyumning shakliga moslashgan. Tekis yuzalarni bezashda aniq sistema mavjud bo`lgan. Bularning vertikal va gorizontal yo`nalmalari o`ziga xos tarzda qismlarga bo`linishi o`zbek an`anaviy qurilmalaridan kelib chiqqan. Ustalar mazkur sistemani buzmaganda o`zaro ohista qo`shilib ketgan ajoyib medol`ionlar, simmetrik kataklar yoki gullangan shohlar turi guldastalar, gul tuvakdagi gullar, daraxtlar ba`zan hatto manzara bilan to`ydirilgan chiroyli baland kalonnalarning g`oyat hilma xil naqsh kompozitsiyalarini yaratganlar. Shuningdek, ular turli ko`rinishdagi hoshiyalarni, uchburchakli o`yiqlardan iborat – eskiz bir maromda yugurib kelayotgandek tuyulladigan o`simlik novdalaridan iborat enli hoshiya naqsh kompozitsiyalarini ishlaganlar.

Yog`ochdan yasalgan buyumlarning konstruktsiyalariga va detallariga tarkibiy

bogʻlangan naqsh kompozitsiyalar ishlanadigan naqsh kompozitsiyalarini tuzish chizish qatʼiy qonun-qoidalaridan iborat boʻladi. Bu qonun-qoidalar tabiatning oʻzidan olingan. Oʻsimliklar faqat bir tomonga qarab oʻsadilar. Masalan, majnuntol, xuddi pastga qarab oʻsayotgandek tuyuladi, lekin harakatda esa, u ildizdan tana, tanadan novda, novdadan barg boʻlib, bir tomonlama yoʻnalishda davom etib keladi.

Tabiatning bu qonuni naqshda oʻz aksini topgan. Usta chizadigan naqshlar shunchaki qogʻoz betini toʻldirish emas balki, ongli ravishda tabiat va badiiylik qonun-qoidalariga amal qilgan holda manzara tasvirini chizish tushiniladi. Shuning uchun xalq amaliy sanʼatining boshqa turlari qatori naqqoshlik sanʼati ham eng qiyin va maʼsuliyatli bosqich kompozitsiya nusxasini chizishdir. Agar naqsh kompozitsiyasi tabiat qonuniga zid boʻlsa, ranglashda va pardozlashda har qancha yutuqqa erishilsa ham ish koʻngildagidek chiqmaydi. Naqsh kompozitsiyasini birdaniga qaraganda chiroyli koʻrinadi, bir ozdan keyin naqsh nuqsonlari sezilib qoladi. Xoʻsh, kompozitsiyaning oʻzi nima?

Kompozitsiya—lotincha soʻz boʻlib, toʻqish bir–biriga maʼlum tartibda joylashtirish, solishtirish maʼnosini anglatadi. Naqsh kompozitsiyasini ishlashda ritm, simmetriya, assimetriya, komponovka, doiraviy takrorlanish, markaz topish, bezakning dinamikligi, tabiiyligi, chiroyligini, pardozlarning va ranglarning uygʻunligi kabi komponentlarni oʻz ichiga oladi.

Komponovka (joylashtirish)- chizayotgan naqsh yoki biror tasvirni qogʻoz yoki biror yuzaga toʻgʻri joylashtirishni tushinamiz.

Simmetriya-grekcha soʻzdan olingan boʻlib, oʻlchovlarning bir – biriga mosligi, tengligi, mutanosibligi kabi maʼnolarni anglatadi.

Ritm - kompozitsiyasini eng kuchli va xarakterli asosi hisoblanadi. Ritm naqsh elementlarini maʼlum masofada bir tekisda takrorlanib kelishi boʻlib, naqshdagi harakatning uzluksiz va goʻzal koʻrinishi taʼminlaydi.

Assimetriya - kompozitsiyada simmetrik muvozanatning buzilish tushuniladi.

Stilizatsiya-tabiatdagi oʻsimlik, hayvon odam va boshqalarni tuzilishini naqqosh tomonidan badiiy usulda umumlashtirib tasvirlashdir.

Naqsh kompozitsiyasini chizishda quyidagilarga qatʼiy rioya qilish kerak:

1. Tanob yoki novda tagidan gul, gʻuncha bargni qoldirib tasvirlash

mumkin emas.

2. Tanob bilan novdani farqlab tasvirlash.
3. Taqsimda ortiqcha nusxa chizib qo`ymaslik
4. Tanobdan hech qachon gul, novda g`uncha va boshqa o`sib chiqmasligi:
5. Naqsh elementlarining nisbatini saqlash.
6. Naqsh chiziladigan yuzaga moslab naqsh kompozitsiyasini tuzish.
7. Naqsh kompozitsiyasidagi zamin bo`shliklarni nisbatini saqlash va

hakazolarni sanab o`tishimiz mumkin.

Yuqoridagi qonun-qoidalarga bo`y sungan holda yog`ochdan yasalgan buyumlar uchun naqsh kompozitsiya eskizlari tayyorlanadi va buyum yuzasiga axta yordamida tushiriladi, ranglash pardoqlash bosqichlarini bajarishga tayyorlab qo`yiladi.

II.3. Yog`ochdan yasalgan buyumlarga naqsh kompozitsiyalariga rang tanlash, ranglash va pardozlash texnologiyasi

Xar qanday buyum yuzasi uchun naqsh kompozitsiyalarni yoddan bemalol chizishni o`rganib olgandan so`ng, bo`yoqlar va rangshunoslik haqida ma`lumotga ega bo`lishimiz kerak.

Yog`ochdan yasalgan buyumlarga chiziladigan har qanday naqsh kompozitsiyasiga rang tanlashda o`ta kuchli e`tiborni qunt va malakani talab qiladi. Buning uchun buyumlar yuzasiga tushirilgan naqsh kompozitsiyalarining tuzilishiga qarab rang tanlash va bo`yash bosqichlari bajarilib boriladi.

Yog`ochdan yasalgan buyumlarga chizilgan naqsh kompozitsiyasini bo`yashdan oldin, unga ishlatiladigan rangli bo`yoqlar asosan guash, siqma akvarellarni tanlab yig`ib olishimiz kerak. Naqsh kompozitsiyasini bo`yashdan oldin qog`ozga palitrada ranglar koler tasvirlash mashq qilinadi. Guash juda suyuq bo`lsa naqsh yuzasi tekis bo`lmaydi. Agar guash juda quyuq bo`lsa mo`rt bo`lib ko`chib tushadi. Kolyor tayyorlashda chinni yoki plastmassa idishchalardan foydalaniladi. Har bir rangli guashga alohida- alohida yog`och kurakchalar ishlatiladi. Naqshlarni bo`yashda elementlarning aniqligiga, simmetrikligiga e`tibor berish, rang gammasiga, koloritiga, ranglarni bog`liqligiga va tiniqligiga, ko`zga yaqqol tashlanadigan dog`larning bo`lmasligi, naqshlarni toza va ozoda chiqishi, naqsh kompozitsiyasining ta`sirchanligiga bo`yoq qavatlarining tekis chiqishiga, guash texnologiyasiga qat`iy rioya qilish kerak.

Naqsh kompozitsiyasi biror gammada masalan, yashil, zangori, jigar rang, pushti, limon rang yoki boshqalarda bo`yaladigan bo`lsa, qaysi rang asosiy kolorit rang bo`lsa shu hukmron rangga bo`ysundiriladi. Naqshdagi qolgan har qanday ranglar shu rang gammasini buzmasligi kerak.

Naqsh kompozitsiyasini ishlashda garmoniya, faktura va kontrastga e`tibor berish kerak.

Garmoniya— gerekcha so`zdan olingan bo`lib munosiblik, bog`liq bo`lish, muvofiqlik, degan ma`noni anglatadi. Naqqoshlikda naqshning o`lchami rangi, shakllari nisbatidagi eng chiroyli uzviylik.

Faktura– lotincha tuzilishi ishlab berish degan ma`noni bildirib naqsh yoki biror tasvirni ishlanadigan buyum sirtining tuzilishi va uning ishlovi.

Konsrast- frantsuzcha keskin farq degani bo`lib, ranglarning qarama-qarshi yoki ranglarni bir-biridan keskin farqi.

YOg`ochdan yasalgan buyumlar yuzasiga, axta yordamida tushurilib chiqilgan naqsh kompozitsiyalari quyidagi bosqichlarda bo`yaladi.

1. Eng avvalo naqsh kompozitsiyasi zamini, ya`ni katta yuzalar.
2. Kichik yuzalar.
3. Barg g`unchalari va boshqalarni.
4. Naqsh kompozitsiyasining gullari va barglari pardoz ya`ni targ`il beriladi.

Ana shu bosqichlar to`liq bajarilgandan keyin naqsh kompozitsiyasi mukammal tugalgan hisoblanadi. YAna bir narsani ya`ni naqsh kompozitsiyalari barg gullari, g`uncha va barglarga pardoz ya`ni targ`il berish texnikasini o`zlashtirish talab qilinadi.

Pardozlash texnikasini ham quyidagi bosqichlarda bajariladi:

1. Parallel ingichka chiziq taroqlari.
2. Naqsh, barg va gullarning urug` va ganchchilarni tasvirlash.
3. Targ`ilning o`rniga edirma usullaridan foydalaniladi.

Edirma usuli ranglarni to`qdan ochlanib ishlatish yo`li bo`lib, mo`yqalam surkalgan rangli quruq suvli mo`yqalamda asta edirib tarqatiladi.

4. Naqshlarining oq bandlari va obilari tortiladi.

Pardozlash bosqichlarining chiroyligi ishning muvaffaqiyatli chiqishiga yordam beradi.

Xulosa

Mamlakatimizda sodir bo'layotgan ijtimoiy –iqtisodiy va siyosiy o'zgarishlar bo'lajak yosh avlodni kasb–hunarga yo'llash ta'lim-tarbiya jarayonini har tomonlama rivojlantirishni talab qilmoqda.

Shu nuqtai nazardan hozirgi kun talabi yosh avlodga ta'lim tarbiya berishda o'rta maxsus ta'lim tizimi mutaxassislari oldiga o'ta muhim va dolzarb vazifalar qo'yimoqda.

Ana shunday vazifalarni hal qilishning bir bo'lagi sifatida o'rta umumta'lim maktablarida xalq amaliy bezak san'ati an'analarini ham o'rgatishga qaratilmog'i kerak deb hisoblaymiz.

Ushbu bitiruv malakaviy ishi ham shu yo'nalishda qilinayotgan ilmiy izlanishlar asosida yuzaga kelganligini ko'ramiz.

Madaniy me'ros va yuksak badiiylik milliy an'anani rivojlantirishga, undan foydalanish, undagi ijodiy amaliyot uslublarini joriy etish, tabiiy material bilan ishlash, kishilarda ayniqsa yoshlarda xalq amaliy san'atining qiziqarli o'ziga xos turlariga dahldor etish maqsadga muvofiqdir, shu sabali ana shu amaliy san'atning trlarini yosh avlodga o'rgatishni tashkil qilish, ularni estetik ruhda tarbiyalash go'zallikni seza bilishga, san'at asarlarini o'rganishga, ulardan bahra olishga, izlanuvchanlik va yaratuvchanlik qobiliyatlarini oshirishga, amaliy san'atga bo'lgan qiziqishlarini kuchaytirish, kasb tanlash ko'nikma va dunyoqarashini shakllantirishga o'rgatish muhim ahamiyatga ega.

SHunday ekan o'zbek amaliy bezak san'ati turlaridan naqqoshlik san'atini yoshlarga chuqurroq o'rgatish imkoniyatlarini izlab topishga erishish kerak. Ana shu fikr va mulohazalarni e'tiborga olib bitiruv malakaviy ustidagi nazariy va amaliy izlanishlar natijasida shunga ishonch hosil qildimki oliy dargohda olgan bilimlarimni yoshlarga o'rgatishdan maroqli, zavqli,sharafli ish bo'lmasa kerak.

Men kelgusida ish faoliyatim davomida o'zbek amaliy bezak san'ati turlaridan olgan bilimlarimni yanada boyitishda izlanishlarni davom qildirib naqqoshlik san'ati mashg'ulotlarining samaradorligini oshirishda ilmiy asoslangan dasturlar tuzish, o'quv metodik ko'rgazmalar tayyorlash, tanlovlar o'tkazish, mahalliy

materiallardan foydalanish, ko`rgazmalar tayyorlashni tashkil etish, o`quv xonalarini zamonaviy jihozlashga harakat qilmoqchiman. SHu bilan birga naqqoshlik san`atidan ijodiy faoliyatimni davom qildirib, yangi-yangi uslubdagi san`at asarlarini yaratmoqchiman.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI

1. Karimov I. A. «O'zbekistonning siyosiy – ijtimoiy va iqtisodiy istiqbolining asosiy tamoyillari»; --T.; «O'zbekiston». 1995
2. Xalq badiiy hunarmandchilik va Amaliy san'atini yanada rivojlantirishni davlat yo'li bilan qo'llab-quvvatlash chora-tadbirlar to'g'risida. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining farmoni,-- T.; «Toshkent oqshomi» gaz. 2 aprel', 1997, 38 – son.
3. Xolmatov B.Q. Naqqoshlik. – T: Iqtisod – molya, 2007.
4. Xolmatov B.Q. Kompozitsiya. – T: Iqtisod – molya, 2007.
5. G'ulomov K. M. Amaliy san'at - T: Iqtisod – molya, 2007.
6. Bulatov S.S. O'zbek xalq amaliy bezak san'ati. –T: Mehnat, 1991
7. Bulatov S.S., Dadashev L. Naqsh alifbosi. –T: Cho'lpon, 1999.
8. Azimov. «O'zbekiston naqshi nigorlari». T: G'.G'ulom nomidagi adabiyoti va san'ati nashriyoti. 1987
9. Ahmedov M. B. Yog'och o'ymakorligi. –T: Iqtisod-moliya, 2007.
10. Bulatov.S.S. Ashurova M.O. Amaliy san'at qisqacha lug'at. -T: Qomuslar bosh tahririyati, 1992.
11. Egamov.X. Bo'yoqlar bilan ishlash –T: O'qituvchi, 1981
12. Mirzahmedov M. K. Boshlang'ich naqsh ishlash metodikasi- T: O'qituvchi, 1976.
13. Mirzaahmedov. M. Materiallarga badiiy ishlov berish. –T: O'qituvchi, 1986.
14. Nabiev M. Rangshunoslik. – T: O'qituvchi, 1995.
15. Qosimov.Q Naqqoshlik. T: O'qituvchi, 1990.
16. G'ulomov K. Ashyolarga badiiy ishlov berish. –T: «Bilim», 2004.
17. «Naqqoshlik»dan ma'ruzalar matni, K.M.G'ulomov, B.Xolmatov, 2003.
18. Zohidov. P. Sh. Farg'ona naqshi. (xalq ustasi Saidahmad Norqo'ziyev albomidan). T: O'z. Adabiy nashriyoti. 1960
19. Hasanov.R. Boshlang'ich sinflarda naqsh chizish metodikasi. T: O'qituvchi, 1972.


20. G'ulomov S. S, Bulatov S. S. «Sharqona usta shogird odobi» O'zR.OO'MTV o'quv adabiyotlari, jurnal va byuletenlarni nashrga tayyorlash markazi, 2000.
21. Bulatova V.A. Notkin I.I. Arxitekturnye pamyatniki Xiva. Izd. «Uzbekistan». T. 1965.
22. Mankovskaya A.L, i Bulatova V.A. Pamyatniki zodchestvo Xorezma. T. Izd. lit. Iskusstvo imeni G.Gulyama, 1978.
23. Morozova A. S. Xivinskiy uzor. T. Gosud. Izd. Xud. lit. Uz.R. 1957.g.
24. Notkin I.I. Tosh-xauli. Izd. «Uzbekistan». T. 1968.
25. Nil'sen V.A, Manakova V.N. O'zbekiston yodgorliklarining me'moriy bezagi Leningrad. Stroyizdat. Leningrad bo'limi. 1974.
26. Rempel L.I. Arxitekturnyy ornament Uzbekistana. T. Gos. Izd. Xid. lit. 1961.
27. Ochiq osmon ostidagi muzey. T. «O'zbekiston» 1978.
28. Xiva albomi. T. «O'zbekiston». 1994
29. Barkamol avlod orzusi. "Qadrlar tayyorlash milliy dasturi"ni amalga oshirish borasidagi publitstik mulohazalar. "SHarq". Toshkent. 1998.

Illova











123-расм. Гулли ислими
Рис. 123. Цветочный «ислими»



124-расм. Накшланган тўрт қиррали хонтахта олд қўринишининг эскизи
Рис. 124. Эскиз росписи передней части четырёхгранного столика

